Oliy hamshiralik ishi mutaxassisligi bo‘yicha shakllantirilgan test savollari ro‘yxati

1 “Etika” so‘zi qanday ma’noni bildiradi:
Yurish-turish, axloq
Zarur, lozim bo‘lgan narsa
Hamshirani xatoliklari
Ovqatlanish

2 Deontologiya tushunchasi qanday ma’noni bildiradi:
Hamshirani axloq-odobi, yurish-turishi, muomalasi tushuniladi
Bemorni kasalxonaga va uning sharoitlariga moslashguncha bo‘lgan ruhiy kechinmalar yig‘indisi
Tibbiyot hodimlarining xatti-xarakatlari va munosabatlaridagi nuqsonlar natijasida kelib chiqadigan bemorlardagi holat
Berilgan vazifalarni bajarishi

3 Valeologiya qanday ta’limot:
Kasalliklar haqidagi ta’limot
Salomatlik haqidagi ta’limot
Tug‘ilish haqidagi ta’limo
Parvarish haqidagi ta’limot

4 Salomatlikka salbiy ta’sir etuvchi omillar:
Yomon illatlardan tiyilish
Organizmni chiniqtirish
Noto‘g‘ri ovqatlanish, tartibsiz hayot faoliyati, zararli odatlar bilan shug‘ullanish
To‘g‘ri ovqatlanish, tartibsiz hayot faoliyati, zararli odatlar bilan shug‘ullanish

5 Katta yoshdagi aholinnng ovqatlanish normasi nimaga bog‘liq emas:
Konstitutsiyasiga
Jinsiga
Mehnat xarakteriga
Kun vaqtiga

6 Majburiy davriy tibbiy ko‘rikdan o‘tishdan bosh tortgan tibbiyot xodimlariga qanday chora ko‘riladi:
ishlashga ruxsat berilmaydi

jarimaga tortiladi
ishdan bo‘shatiladi
majburiy tibbiy ekspertizaga yuboriladi

7 Bemorning har qanday tibbiy aralashuvga ixtiyoriy roziligi qanday shaklda bo‘lishi kerak:
yozma shaklda
og‘zaki shaklda
shart emas
muayyan holatga bog‘liq

8 Bemorlarni kasalxonaga qabul qilish va yotqizishni rad etish jurnali qayerda yuritiladi:
Davolanish bo‘limida
Bemorxonada
Ma’muriyatda
Qabulxonada

9 Aholining kasallanish darajasini o‘rganish usullariga nima kiradi:
aholini ro‘yxatga olish
bemorlarni ro‘yxatga olish
tibbiy yordamga murojaat
antropometrik o‘lchash

10 Irsiy moyillikka ega bo‘lgan kasalliklarga nima kiradi:
bronxial astma
sil kasalligi
o‘pka proteinozi
zotiljam

11 Axoli salomatligi darajasini tavsiflovchi asosiy miqdoriy mezonga nima kiradi:
o‘rtacha umr ko‘rish
chaqaloqlar o‘limi darajasi
aholining mehnat salohiyati
aholining umr ko‘rish davomiyligi

12 Tibbiy muassasaga murojaat qilganlarning kasallanishni o‘rganish qaysi manba orqali o‘rganiladi:

statistik karta
bemor kasallik tarixi
nazorat ro‘yxat
vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varag‘i

13 Tibbiy skrining tomonidan xavf omillar ta’sirini kamaytirish va kasalliklarni erta aniqlash uchun nima amalga oshiriladi:
aholini jismoniy tarbiya va sportga jalb qilish
immunoprofilaktika ishlarini olib borish
profilaktik tibbiy ko‘riklar
atrof-muhit va salomatlik skriningi

14 Yuqumli bo‘lmagan kasalliklar xavf omillarini baxolashni birinchi bosqichiga nima kiradi:
so‘rovnoma
fizik tekshiruv
laboratoriya tadqiqotlari
instrumental tadqiqotlar

15 Tibbiy profilaktika aholiga nisbatan qanday belgilanadi:
shaxs, guruh, aholi
shaxs va aholi
individual va guruhli
faqat guruh

16 Reproduktiv tizim kasalliklarida birlamchi profilaktikaga nima kiradi:
reproduktiv tizim kasalliklarini aniqlash
bepushtlikni davolash
sog‘lom turmush tarzi tamoyillariga rioya qilish
endokrinologik tizimni davolash

17 Surunkali yuqumli bo‘lmagan kasalliklar oldini olishning ilmiy asosi nima:
xavf omillari
sog‘lom turmush tarzi
zararli odatlarga qarshi kurashish
individual profilaktika

18 Agar manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelsa, tibbiyot xodimi bu haqida yozma ravishda kimga xabar qilishi mumkin:
sog‘liqni saqlash vazirligiga
prokuratura organlariga
iste’molchilar huquqlarini himoya qilish xizmatiga
u ishlaydigan tibbiy muassasa rahbariga

19 Tibbiyot xodimi o‘z vazifalarini bajarish paytida axloqiy me’yorlari, hulq-atvor tamoyillari to‘plami nima deb ataladi:
odob - axloq qoidalari
tibbiy deontologiya
yatrogeniya
bioetika

20 Hamshiraning hulq-atvorini o‘rganuvchi fan:
Etika
Ergonomika
Deontologiya
Yatrogeniya

21 Konfidensiallik (maxfiylik) qoidasini bajarish quyidagini o‘z ichiga oladi:
evtanaziyani qo‘llash
bemorning roziligidan keyin qarindoshlarga ma’lumot berish
tibbiyot xodimidan kelib chiqadigan zararni kamaytirish
ergonomika

22 Hamshira va bemor o‘rtasida ma’lumot uzatish jarayoni nima deyiladi:
Kommunikatsiya (muloqot)
Idrok
Fikr-mulohaza
Maxfiylik

23 Hamshiralik faoliyatini sifat darajasini aniqlash mumkin bo‘lgan asosiy qoida:
javobgarlik
sog‘liqni saqlashda standartlashtirish
hamshiralik ishi standarti
Kommunikatsiya (muloqat)

24 Birinchi marta "hamshiralik tashxisi" tushunchasi qachon paydo bo‘lgan:
20 – asrning 50-yillarida Amerikada
20 – asrning 90-yillarida Rossiyada
19-asrning 80-yillarida Angliyada
20 – asrning 80-yillarida Angliyada

25 Bolalar orasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish qanday ta’minlanadi:
jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanish uchun sharoit yaratish
majburiy immunoprofilaktika orqali
kasalliklarni davolashda yangi yutuqlar haqida ma’lumot berish orqali
maxsus oziq-ovqat turlarini reklama qilish orqali

26 O‘z-o‘zini parvarish qilish - bu nima:
O‘z kiyimlarini o‘zi almashtira olishi
Hamshira bilan bemalol muloqot qila olishi
Hayot va salomatlikni saqlab turish, hastalik va shikastlardan tiklanish va ularning oqibatlarini yengish
Uy sharoitida davolana olish

27 Inson sog‘lig‘i uchun kim ma’sul:
Inson sog‘lig‘i uchun hech kim ma’sul emas
Inson o‘z sog‘lig‘i uchun o‘zi ma’sul
Inson salomatligiga shifokorlar ma’sul
Inson salomatligiga qarindosh-urug‘lari ma’sul

28 Shoshilinch tibbiy yordam qaysi holatlarda ko‘rsatiladi:
bemorning hayotiga tahdidning aniq belgilari bo‘lmagan to‘satdan paydo bo‘lgan o‘tkir holatlarda
bemorning hayotiga tahdidning aniq belgilari bo‘lmagan kasalliklarda tez tibbiy yordam mashinasida
bemorning hayotiga tahdidning aniq belgilari bo‘lmagan surunkali kasalliklarning kuchayishida
bemorning hayotiga tahdid soluvchi to‘satdan paydo bo‘lgan o‘tkir holatlarda

29 Tibbiy muassasa ishini tashkil etishning asosiy hujjati qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan:
xodimlarga qo‘yiladigan talablarni o‘z ichiga olgan hujjatlar

tibbiy tashkilotning ustavi
sifat menejmenti tizimining talablarini o‘z ichiga olgan hujjatlar
litsenziya talablarini o‘z ichiga olgan hujjatlar

30 JSST bo‘yicha “salomatlik” tushunchasini ko‘rsating:
Salomatlik bu- biror kasallik bo‘lmagan holat
Bu - kasallikni shifokor, hamshira va bemor hamkorligida davolash jarayonidir
Bu-faqat kasallik yoki biror bir a’zo faoliyatidagi buzilish emas, balki ham jismoniy, ham ruxiy, ham ijtimoiy plandagi eng yaxshi holatdir
Kasallikni yengish usullarini tushuntirish va yanada to‘laqonli hayotga erishishida yordam berish

31 Salomatlikka qanday omillar ta’sir etadi:
Bemorga qaratilgan parvarish
Atrof-muhit, suv va havo, tozalik
Tabiat, atrof-muhit, gigiena
Irsiy omillar, yosh, jismoniy omil, turmush tarzi, atrof muhit

32 Ovqatlanish nima:
Tirik organizmning asosiy fiziologik ehtiyojidir
Tirik organizmning asosiy psixologik ehtiyojidir
Tirik organizmning asosiy terapevtik ehtiyojidir
Tirik organizmning asosiy farmokologik ehtiyojidir

33 Me’yorda sog‘lom odam kuniga nechi marta ovqatlanishi lozim:
Kuniga 2-marta
Kuniga 4-marta
Kuniga 6-marta
Kuniga 7-marta

34 Valeologiya atamasini fanga kiritgan olim-.... :
Izrael Brexman
Abu Ali ibn Sino
Galen
Frensis Bekon

35 Valeologiya fan sifatida qachon shakllangan:
20 asrning 80- yillarida

19 asrning 50-yillarida
19 asrning 30-yillarida
20 asrning 50-yillarida

36 Salomatlik uchun meva va sabzavotlarni faslga qarab, kuniga qanchadan iste'mol qilish kerak: (1 porsiya – 80 gr. teng):
3 porsiya
5 porsiya
1 porsiya
2 porsiya

37 Hamshiralik ishi fani o'rgatadi:
Bemorlarni parvarish qilish, axloq-odob qoidalarini, kasallikni oldini olish va sog'lom odamlar salomatligini saqlashni
Bemorlarni davolash, sog'lom turmush tarzini, sog'lomlashtirish usullarini
Bemorlarni davolash, go'daklarni parvarishlash va ovqatlantirishni
Bemorlarni parvarish qilishni, tug'ruq davrlarni nazorat qilishni

38 Hamshiralik ishining asoschisi F.Naytingeyl qachon tavallud topgan:
1820-yil
1920-yil
1810-yil
1910-yil

39 Halqaro Hamshiralar kuni qachon nishonlanadi:
7-may
12-may
3-may
12-iyun

40 Florens Naytingeyl medali qachon ta'sis etilgan:
1905-yil
1925-yil
19l2 yil
1945-yil

41 Insonning 14 ta asosiy extiyojlari muallifi kim:
Maslou

Logan
Orem
Xenderson

42 Qadimda shifoxonalarda o‘lim sonining ko‘pligi nimaga bog‘liq bo‘lgan:
Shifokorlar bilim darajasi kimligi sababli
Hamshiralar kamligi
Taniqli olimlar bo‘lmaganligi sababli
Sanitariya holatlarining yomonligi

43 “Kitob al -xoviy” asari qaysi alloma tomonidan yozilgan:
Abu Mansur Samoniy
Maxmud ibn Baxrom Kalon
Najmiddin, Samarkandiy
Abu Bakr ar Roziy

44 Abu Ali ibn Sinoning “Tib qonunlari” asari nechta kitobdan iborat:
2 ta kitobdan
3 ta kitobdan
7 ta kitobdan
5 ta kitobdan

45 Hamshiralik jarayoni- bu:
Hamshiralik parvarishiga sistematik yondashuvi
Bemorni davolash
Bemorni ovqatlantirish
Bemorga rahbarlik qilish

46 Hamshiralik jarayonining maqsadi birinchidan….:
Bemorning ineksiyaga bo‘lgan extiyojini aniqlash
Bemorning tibbiyot xodimiga bo‘lgan extiyojini aniqlash
Bemor injikliklarini aniqlash
Bemorning parvarishga bo‘lgan extiyojini aniqlash

47 Xendersonning modelining asosiy mezonlari nimalardan iborat:
14-ta asosiy ehtiyojlaridan iborat
N. Rouperning 12-ta ehtiyojidan
Oremning 7-ta ehtiyoji

K. Roy modeli

48 Hamshiralik jarayoni nechta bosqichdan iborat:
5 ta
4 ta
3 ta
2 ta

49 Bemorlarni tekshirish hamshiralik jarayonining nechanchi bosqichda amalga oshiriladi:
1- bosqichda
4 - bosqichda
3- bosqichda
2- bosqichda

50 Hamshiralik jarayonining 2 – bosqichi nimadan iborat:
Bemorni tekshirish
Bemor muammosini aniqlab, hamshira tashxisini qo‘yish
Parvarish rejasini tuzish
Parvarish rejasini amalga oshirish

51 Inson ehtiyojlari necha turga bo‘linadi:
5ta turga
4 ta turga
3 ta turga
2 ta turga

52 Hamshiralik jarayonining 3 – bosqichi nimadan iborat:
Bemorni tekshirish
Bemor muammosini aniqlab, hamshira tashxisini qo‘yish
Parvarish rejasini tuzish
Parvarish rejasini amalga oshirish

53 Parvarish rejasini amalga oshirish nechanchi bosqichda amalga oshiriladi:
1- bosqichda
4 - bosqichda
3- bosqichda
2- bosqichda

54 Hamshiralik parvarishi samaradorligini baholash necha bosqichda:
5- bosqichda
4 - bosqichda
3- bosqichda
2- bosqichda

55 Hamshiraning majburiyatlari nimalardan iborat:
Bemor muammolarini hisobga olgan holda parvarish qilish
Shifokor ko‘rsatmasi bo‘yicha ish olib borish
O‘zi hoxlagan usulda ish olib borish
Bemorlarni tekshiruvlarga tayyorlash

56 Hamshiralik ishiga F. Naytingeyl bergan ta’rifni ko‘rsating:
Tashhis qo‘yish davrida, davolanayotganda bemor bilan atrof-muxit o‘rtasidagi bog‘liqlik e’tiborga olinishi
Hamshiralik parvarishi hamshiralik amaliyotining elementlarini tashqil qiladi
Parvarish qilishdan maqsad organizmdagi anatomik va fiziologik tizimlarda anik o‘zgartirish yaratishga yo‘naltirish
Hamshiralik ishining vazifasi-tabiat bemorga o‘z ta’sirini ko‘rsatishi uchun bemorga eng qulay shart-sharoit yaratib berish

57 F. Naytingeylning eng mashhur kitobi qanday nomlanadi:
“Qizil va Qora”
“Parvarish haqida xotiralar”
“Buyuk hamshira”
“Qonsepsiya”

58 F. Naytingeyl fikricha hamshiralik ishida nimalar katta ahamiyatga ega:
Bemor yoshi, jinsi
Bemor irqi, ijtimoiy kelib chiqishi, kasallik holati
Atrof-muhit, ovqatlanish va tabiiy tuzalishga qodirligi
Bemor kasallik holati, kasalxona sharoiti, hamshiraning bilimi

59 Verbal muloqot deb nimaga aytiladi:
Bemorlarga sovuqqonlik bilan javob berish
Boshni qimirlatish
Faol eshitish, savollar berish, qaytarish va reaksiya ko‘rsatish san’ati
Gavda holati, yuzdagi mimika, ko‘z aloqasi, so‘zlash ritmi va oxangi

60 Noverbal muloqot bu-:
Bemorlarga sovuqqonlik bilan javob berish
Boshni qimirlatish
Faol eshitish, savollar berish, qaytarish va reaksiya koʻrsatish sanʼati
Gavda holati, yuzdagi mimika, koʻz aloqasi

61 Tibbiyot xodimlarining xatti-xarakatlari va munosabatlaridagi nuqsonlar natijasida kelib chiqadigan bemorlardagi holat nima deyiladi:
Yatrogeniya
Deontologiya
Etika
Kommunikatsiya

62 Mehnat shartnomasi qachon kuchga kiradi:
Shartnoma imzolangan kundan boshlab
Shartnoma imzolangach 5 kundan soʻng
Davlat roʻyxatidan oʻtgandan soʻng
Shartnoma eʼlon qilingan kundan soʻng

63 Ishga qabul qilishda sinov muddatisiz kimlar ishga qabul qilinadi:
18 yoshga toʻlmagan xodimlar
Nogironlar
Xarbiy xizmatchilar
Nafaqa yoshidagi shaxslar

64 Sterilizatsiya boʻlimi katta hamshirasi tomonidan sterilizatsiyadan oldingi tozalash sifatini oʻz-oʻzini nazorat qilish qanday amalga oshiriladi:
oyiga 1-marta
7 kunda 1-marta
har kuni
chorakda 1-marta

65 Mehnat shartnomasi kimlar tomonidan bekor qilinadi:
Ish beruvchi, xodim, kasaba uyushmasi
Ish beruvchi, xodim, militsiya xodimi
Xodim va uning oila aʼzolari
Kasaba uyushmasi, kadrlar boʻlimi boshligʻi

66 Necha yoshdan mehnat shartnomasi mustaqil tuziladi:
16 yoshdan
14 yoshdan
18 yoshdan
20 yoshdan

67 Mehnat davomiyligi haftasiga kimlar uchun 34 soatdan oshmasligi lozim:
16-18 yoshgacha bo‘lgan xodimlar uchun
Nogironlar uchun
Nafaqaxo‘rlar uchun
14-15 yoshdagi xodimlar uchun

68 Xodimning asosiy mehnat xuquqlari qaysi javobda to‘liq aks etgan:
Har bir shaxs mehnat qilish va ishsizlikdan ximoyalanish xukukiga ega
Har bir shaxs erkin ish tanlash huquqlariga ega
Haqqoniy mexnat sharoitlari asosida ishlash huquqiga ega
Ishsizlikdan ximoyalanish huquqiga ega

69 Mexnat shartnomasi qanay muddatlarda rasmiylashtiriladi:
Nomuayyan va muddatli
Muddatli
Nomuayyan
Ish beruvchining xoxishiga asosan

70 Lavozimni suiste’mol qilish qaysi javobda to‘g‘ri keltirilgan:
Tibbiy asboblarni ishdan chiqarish
Ishga o‘z vaqtida kelmaslik
Qalbaki hujjatlarni yozib berish
Dori vositalarini yashirib qo‘yish

71 “Fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash to‘g‘risida”gi qonun qachon qabul qilingan:
2019-yil
2017-yil
2018-yil
2020-yil

72 Onalik va bolalikni muxofaza qilish bosh boshqarmasi tomonidan tug‘ruk va bolalar DPMlarning xodimlarni ishlari samaradorligi qanday aniqlanadi:
So‘rovnoma asosida
Monitoring tahliliga ko‘ra
Tekshiruvlar asosida
Xisobotlar asosida

73 Menejment - bu:
Boshkaruv haqidagi fan
Psixologiya haqidagi fan
Inson fiziologiyasini boshqarish
Moddiy resurslarni boshqarish to‘g‘risidagi fan

74 Avtokratik rahbarlar qanday ish yuritadilar:
Tashabbuskorligiga to‘la-to‘kis tayanadi
Tashabbuskorligiga yo‘l ko‘yadi
Tashabbuskorligini rag‘batlantiradi
Tashabbuskorligiga yo‘l qo‘ymaydi

75 Demokratik rahbarlarning bilimga bo‘lgan munosabati:
Hamma narsani o‘zim bilaman deb hisoblaydilar
Beparvo, e’tiborsiz bo‘ladilar
Muttasil o‘qiydilar va qo‘l ostidagi bo‘ysunuvchilardan xam shuni talab qiladilar
O‘zining noo‘rin xarakatlarining tanqid qilinishiga chiday olmaydi

76 Demokratik rahbarlar muomalada:
Ijobiy, muloqotda kirishimli va faol bo‘ladilar
Tashabbus ko‘rsatmaydilar
Salbiy, bo‘ysunuvchilardan masofa saqlaydilar
Kibrli va balandparvoz bo‘ladilar

77 Liberal raxbarlar rag‘batlantirishga kelganda:
Onda-sonda rag‘batlantirib, tez-tez jazolab turish tarafdori bo‘ladilar
Aniq mo‘ljallari bo‘lmaydi
Onda-sonda jazolab, tez-tez rag‘batlantirib turish tarafdori bo‘ladilar
Rag‘batlantirish noo‘rin deb o‘ylaydilar

78 Avtokratik rahbarlar mas’uliyatni taqsimlashda:
To‘la-to‘kis o‘zlari taqsimlaydi
To‘la-to‘kis ijrochilarning fikriga binoan taqsimlaydi
Faqat xodimlarning vakolati doirasida taqsimlaydi
Ma’suliyatni o‘z bo‘ynidan soqit qiladilar

79 Qaror bu - :
Zaruriyatini mavjud holat bilan mos tushmasligi natijasi
Bajarilishi lozim bo‘lgan ishning aniq bir yo‘lini tanlab olishdir
Muayyan ishlab chiqarish holatini tahlil qilishdan kelib chiqadi
Rahbarlik qilish vakolati

80 Boshqaruv qarorlariga qo‘yiladigan talab:
Ilmiy asoslangan bo‘lishi lozim
Aniq belgilangan bo‘lishi lozim
Joyi ko‘rsatilgan bo‘lishi
Hamma javob to‘g‘ri

81 Kommunikatsiya-bu:
Insonlar orasidagi axborot almashinuvi jarayoni
Kelishmovchiliklarni oldini olish vositasi
Suhbatlashish jarayonida boshqa insonlar orasidagi o‘zaro aloqani buzish
Bir gurux insonlar orasidagi to‘qnashuvlarga qarshi turish

82 Kommunikatsiya tushunchasiga to‘g‘ri berilgan ta’rifni toping:
So‘zlashuv kobiliyati, rasmiy xujjatlarni uzi o‘kiy olish qobiliyati
Majlislarda qatnashish madaniyati
Kishilar bilan yakkama-yakka suxbat olib borish qobiliyati
Axborot vositalari orqali chiqishlar qilish

83 Shaxslararo axborot almashuv jarayonida qanday muammolar tug‘ilishi mumkin:
Idrok qilishdagi ruxiy farq
Ma’naviy tusiq
Noverbal imo-ishoralar
Barcha javoblar to‘g‘ri

84 O‘zining shaxsiy ishiga ega bo‘lgan inson bu-:
Biznesmen

Tadbirkor
Rahbar
Lider

85 Ilmiy izlanishda annotatsiya bu- ...:
Birinchi manba’ ma’lumotining qisqacha mazmuni
Maqolaning to‘liq matni
Hamshiralik jaraènining bosqichlari
Reja tuzish va uni amalga oshirish

86 Ilmiy tadqiqotning muhim vazifalaridan biri bu-...:
O‘rganilayotgan ma’lumotni tahlil qilish
Ma’lumotni hisobot qilish
Mavzudagi ma’lumotlarni ko‘chirib berish
O‘rganilaètgan mavzudan chetga chiqish

87 Tezis – bu- ...:
Ilmiy matn bo‘lib, ilmiy tadqiqotni asosiy natijalarini aks ettiradi
Imlo lug‘ati bo‘lib, unda so‘zlarning to‘g‘ri èzish usullari aks ettirilgan
Lotin tilidan olingan bo‘lib, “hisobot qilaman” degan ma’noni anglatadi
Ilmiy matn bo‘lib, unda lug‘at ifodalangan

88 Tibbiy muassasada nurlanish manbalariga nima kiradi:
fizioterapiya apparati
rentgen apparatlari, radioaktiv izotoplar
televizor uskunalari
elektrokardiograflar

89 Isitma nechta davrda kechadi:
5
4
2
3

90 Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni olish uchun retseptlar yoki huquq beruvchi boshqa hujjatlarni qonunga xilof ravishda berish yoki qalbakilashtirishga qanday jazolanadi:
3
5

2
4

91 Aholi tibbiy yordam olish uchun murojaat qilganda qayd etilgan holat, ilgari hech qayerda qayd etilmagan va ma’lum bir yilda birinchi marta bo‘lgan kasallik nima deyiladi:
o‘ziga xos kasallik
qayd etilgan kasallik
birlamchi kasallanish
umumiy kasallanish

92 Populyatsiyani takror sonining uzluksiz o‘zgarish jarayoni sifatida va bir avlodning ikkinchi avlodga o‘zgarishi davridagi tuzilmalar qaysi fan tomonidan o‘rganiladi:
Sotsiologiya
Etnografiya
Demografiya
siyosatshunoslik

93 Ilmiy tadqiqotning dalillarga asoslanganligi nima deyiladi:
asoslilik, shubhasizlik, bilim
g‘oyani to‘g‘riligini qisqartirish yo‘li bilan o‘rnatuvchi mulohazalar allaqachon tasdiqlangan boshqa bayonotlar
voqelikni idrok etish jarayonining amalda tasdiqlangan natijasi
o‘zaro maqbul yechimga erishish niyatida vakolatli shaxslar tomonidan masala yoki tegishli masalalar guruhi muhokamasi

94 Jarohatlar, nuqsonlar yoki kasallik oqibatida insonning doimiy sog‘lig‘ining buzilishi holati nima deyiladi:
bemor
nogironlik
salomatlik imkoniyatlari chegaralangan shaxs
mijoz

95 O‘zbekiston Respublikasining “Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to‘g‘risida”gi Qonuni qachon qabul qilingan:
26-avgust 2015-yil
14 sentabr 2011-yil
22-iyun 2018-yil
25-yanvar 2018-yil

96 Kasallanish ko‘rsatkichi bo‘yicha asosiy ma’lumot manbai:
namunaviy demografik tadqiqot
aholi tibbiy yordamga murojaat qilganda kasallik holatlarini qayd etish
aholini ro‘yxatga olish
aholining sotsiologik so‘rovi

97 Yaroqsiz, muddati o‘tgan dori vositalar (shu jumladan sitostatiklar), diagnostik, dezinfeksiyalovchi vositalar, hamda o‘z tarkibida simob saqlovchi tibbiy uskunalar chiqindisi qaysi sinfga mansub:
"B"
"G"
"V"
"D"

98 Tibbiy muassasaga kelib tushgan va qabul qilingan hujjat nima deyiladi:
Kiruvchi
Ichki
Direktiv
chiquvchi

99 Puls bosim nima:
sistolik va diastolik qon bosimi orasidagi farq
sistolik qon bosimiga tenglik
diastolik qon bosimiga tenglik
arteriyadagi pulsning balandligi

100 Asosiy va operativ vazifalarni hal qilish maqsadida rahbar tomonidan chiqarilgan huquqiy hujjat nima deyiladi:
ma’lumotnoma
ko‘rsatma
buyruq
dalolatnoma

101 Davolash profilaktika muassasalarida infeksion nazorat komissiyasi tashkil etiladi:
3 yilda 1-marta
Xar joriy yil boshida
2 yilda 1-marta

Epidemiya vaqtida

102 Shifoxonaning jarrohlik bo‘limi katta xamshirasi bo‘limdagi 1 nafar shifokor va 2 nafar operatsiya hamshirasining stafilokokk tashuvchiligiga tekshiruvdan qayta o‘tish vaqti yaqinlashganligi haqida ogoxlantirildi. Jarrohlik ixtisosidagi statsionarlar (bo‘limlar) xodimlarini stafilokokk tashuvchiligiga tekshirish yiliga necha marta o‘tkaziladi:
Yiliga 1-marta
Yiliga 4-marta
Epidemiya vaqtida
Yiliga 2-marta

103 Davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati xizmati mutaxassislari tomonidan tashqi muhit laboratoriya nazorati qanay muddatlarda amalga oshiriladi:
Xar chorakda 1-marta
Yiliga 3-marta
Epidemiya vaqtida
Yiliga 2-marta

104 Fuqarolarga OIV ga nisbatan antitelolarga tekshiruv natijalarining manfiyligini tasdiqlovchi ma’lumotnoma-sertifikatlar kim tomonidan beriladi:
Poliklinika vrachi
Patsient kuzatuvda turgan tibbiy muassasa vrachi
Patsientni tekshiruv o‘tkazilishi uchun yo‘llagan tibbiy muassasa vrachi
Shaxsni tasdiqlovchi hujjat taqdim etilganida, hududiy OITSga qarshi kurashish markazi vrachi

105 Tibbiyot xodimlarining xatoliklari yuzasidan kelib chiqadigan holat qanday nomlanadi:
Evtanaziya
Deontologiya
Yatrogeniya
Sanalogiya

106 Yatrogeniya kelib chiqishiga sababchi emas:
Bemorning onasi
Bemor
Bemor qarindoshlari

Hamshira

107 Muloqotning qanday usullari mavjud:
verbal va noverbal
ochiq va yopiq
samarali va samarasiz
samimiy va soxta

108 Gerogigiena nimani o‘rganadi:
Qarish bilan bog‘liq biologik jarayonni o‘rganadi
Keksa va katta yoshdagi odamlar gigienasini o‘rganadi
Keksalar psixikasi va fe’l-atvorini o‘rganadigan bo‘lim
Keksalarning oqilona ovqatlanish tarzini o‘rganadi

109 OIV – bu nima
OIV — Odam immunitet tanqisligi virusi
Gepatit keltirib chiqaruvchi virus
OIV retrovirus, revertaza saqlaydi, genomi faqat RNK ko‘rinishida mavjud
DNK saqlovchi virus, teskari transkriptazani saqlaydi, flavivirus

110 OITS – bu nima:
Bu - OIV infeksiyasining oxirgi bosqichi xisoblanadi
Bu - OIV infeksiyasining terminal (o‘limdan oldingi) bosqichi
DNK saqlovchi virus, teskari transkriptazani saqlaydi
OIV – o‘ta xavfli yuqumli kasallik

111 OIV infeksiyasi bu...:
Apronoz
Antroponoz
Zoonoz
Zooantroponoz

112 Tibbiyot xodimi OIVni yuqtirishi mumkin:
Parenteral muolajalarni o‘tkazishda
Rentgenologik tekshiruvda
Bemor ko‘rigida
UTT ni bajarishda

113 OITS qo‘zg‘atuvchisi viruslarning quyidagi oilasiga mansub:
Ortomiksoviruslar
Retroviruslar
Flaviviruslar
Adenoviruslar

114 Tibbiy yordam ko‘rsatish bilan bog‘liq infeksiyalarga quyidagilar kiradi:
bemor kasalxonaga yotqizilgan har qanday klinik taniqli yuqumli kasallik
jinsiy yo‘l bilan yuqadigan infeksiya
har qanday tibbiy yordam ko‘rsatish bilan bog‘liq tibbiyot xodimlari
insiy yo‘l bilan yuqmaydigan infeksiya

115 OIV infeksiyasini/OITSni laboratoriyada tasdiqlash usullari:
Biologik sinama
Serologik
Bakteriologik
Mikroskopik

116 Serologik oyna davrining davomiyligi:
3 oygacha
6 oygacha
9 oygacha
1 yilgacha

117 16 yosh o‘smir, ximoyalanmagan jinsiy aloqadan so‘ng OIV bor yo‘qligiga tekshirtirmoqchi. Tekshirish uchun test tanlang:
Test antigen p24 ni aniqlash
Standart serologik tekshiruv
Teskari tarnskripsiya usuli
OIV RNK miqdorini aniqlash

118 OIV infeksiyasini davolash quyidagilarni o‘z ichiga oladi:
Retrovirusga qarshi preparatlar
Antibakterial preparatlar
Zamburug‘larga qarshi preparatlar
Sitostatiklar

119 Tarkibida OIV saqlanadigan potentsial xavfli biologik suyuqliklarni belgilang:

qon, ona suti, ko‘z yoshi, shaxvat, ter, siydik
qon, shaxvat, qin suyuqligi, amniotik suyuqlik, ona suti, sinovial suyuqlik
qusuq, so‘lak, najas, yiring, me’da va o‘n ikki bamoql ichak suyuqligi
ko‘z yoshi, yiring, oshqozon shirasi, o‘t suyuqligi

120 OIV infeksiyasini skrining tekshiruvidan o‘tkazish:
Ixtiyoriy, majburiy, g‘ayri ixtiyoriy
Tekshirish uchun asosli sabablarning yo‘qligi
Ushbu manzilda doimiy yashash uchun ro‘yxatdan o‘tmaganligi
Shifokorning tashxisli yullanmasi

121 Dezinfeksiya nima:
Operatsion jarohatga mikroblar tushishining oldini olishni ta’minlaydigan tadbirlar
Kasalliklarni oldini olish
Ob’ekt, muhit va buyumlardagi yuqumli kasalliklar ko‘zg‘atuvchilarini yo‘qotishdir
Jarohatdagi potologik tuzilmadagi yoki umuman organizmdagi mikroblarni yo‘qotish

122 Zararsizlantiruvchi moddalar ko‘zga tushganda qanday chora ko‘riladi:
Oqar suvda bir necha daqiqa davomida yuvib tashlanadi va oftalmologga murojaat qilinadi
Vodorod peroksid eritmasi bilan yuviladi
Kaliy permanganat eritmasi bilan yuviladi
Natriy bikarbonat eritmasi bilan yuviladi

123 Sterilizatsiya deganda nimani tushunasiz:
Operatsion jarohatga mikroblar tushishining oldini olishni ta’minlaydigan tadbir
Kasalliklarni oldini olish
Organizmdagi mikroblarni yo‘qotishga qaratilgan tadbir
Mikroblar va ularning sporalarini yo‘qotishga qaratilgan chora-tadbirlar

124 Dorixonalarda tayyorlanadigan steril eritmalarni saqlanish muddati necha kun:
30 kun
4 kun
2 kun
5 kun

125 Tibbiyot hodimlari o‘zini parenteral gepatitlar yuqishidan qanday himoya qiladi:
Qo‘lidagi jarohatlarni leykoplaster bilan yopib, rezina qo‘lqop, doka niqob kiyadi
Rezina qo‘lqop, rezina fartuk
O‘latga qarshi ximoya kiyimini kiyadi
Steril halat, qalpoqcha, baxila, doka niqob kiyadi

126 Biksda materialarning sterilligi qancha vaqt saqlanadi:
1 kun
3 kun
5 kun
7 kun

127 Ochiq biksning sterilligi qancha vaqt saqlanadi:
6 soat
12 soat
10 soat
24 soat

128 Keltirilgan tibbiy muolajalardan qay biri OIV-infeksiya yuqishida havfsiz:
Yopiq sinishda gips qo‘yish
Xirurgik muolaja
Inyeksiyalar
Tish sug‘urish

129 OIV infeksiyasi mavjudigi aniqlangan 30 yoshli homilador ayol tug‘ish vaqti kelganda o‘zi tabiiy tug‘ruq yo‘llari orqali tug‘ish niyati borligini aytdi,lekin bolasini sog‘lom bo‘lishini xohlaydi.Siz OIV infeksiyasini onadan bolaga yuqishi mumkinligi haqida beradigan ma’lumot qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan:
Sun’iy ovqatlantirilganda (idish orqali)
Homiladorlik davrida, tug‘ruq vaqtida, ko‘krak suti bilan emizganda
Bolani parvarishlashda va maishiy muloqot vaqtida
Tug‘ruq vaqtida, idish orqali sun’iy ovqatlantirilganda

130 OIVni yuqishida qaysi biologik suyuqliklari havfsiz hisoblanadi:
Ter, so‘lak, ko‘z yoshi, siydik

Ko‘z yoshi, qin ajralmasi, siydik
So‘lak, ko‘z yoshi, qon
Qon, erkak spermasi, qin ajralmasi

131 Tibbiy muolajalarni bajarishda qon va boshqa biologik suyuqliklar bilan kasbiy muloqatda bo‘lganda zararlanishning eng yuqori xavfi:
Gepatit V virusi, OIV
Gepatit S virusi
Oddiy gerpes virusi
Gepatit A virusi

132 OIVni onadan bolaga o‘tganligini aniqlash uchun hozirgi kunda qaysi usullardan foydalaniladi:
Polimeraza zanjirli reaksiya (PSR)
Mikroskopik usul
Teri-allergik sinama
Bakteriologik usul

133 OIV infeksiyasini chaqiruvchisi:
RNK saqlovchi retrovirus
Adenovirus
Flavovirus
Rabdovirus

134 Eng ko‘p epidemiologik havf tug‘diruvchi suyuqliklar:
Qon, erkak spermasi, qin ajralmasi
So‘lak, sperma, ter
Qon,so‘lak, qin ajralmasi
Qon, so‘lak va ko‘z yoshi

135 OIVni yuqish yo‘llari:
Jinsiy, parenteral, OIV infeksiyali onadan bolaga
Havo-tomchi yo‘l orqali
Umumiy hojatxonadan foydalanganda
Fekal-oral yo‘l

136 OIV infeksiyasida asosan qaysi hujayralar zararlanadi:
T-limfotsitlar
V- limfotsitlar

Eritrotsitlar
Trombotsitlar

137 OIV infeksiyali onadan tug‘ilgan bolada klinik tekshiruvlar musbat natijani ko‘rsatdi, tashxisga aniqlik kiritish va ARV terapiyani boshlash masalasini hal qilish maqsadida OIVni onadan bolaga o‘tganligini aniqlash uchun hozirgi kunda qaysi usullardan foydalaniladi:
PZR usulida virus yuklamasi aniqlanadi
Mikroskopik usulida surtma o‘rganiladi
Teri-allergik sinama qo‘yiladi
Bakteriologik usul qo‘llaniladi

138 Shifoxona ichi infeksiyasining tarqalish sabablari:
Bir martalik tibbiy anjomlardan foydalanish
Dezinfeksiya va sterilizatsiyaning to‘la amalga oshirilishi
Aseptikaga amal qilmaslik, sterilizatsiyaning yetarli emasligi
Bakteriotsid lampalardan o‘z vaqtida foydalanish

139 Oqliklarni sterilligini tekshirishning eng samarali usuli bu-...:
Bakteriologik
Mexanik
Texnik
Fizik

140 Biksga hiliga qarab bog‘lov materiallari qanday joylashtiriladi:
Operatsiyaning ma’lum bir turiga qarab kerak bo‘lgan jihozlar joylashtiriladi
Hamma bog‘lov materiallari joylashtiriladi
Materiallarning bir turi joylashtiriladi
Kun davomida bog‘lov xonasi uchun kerak bo‘ladigan jihozlar joylashtiriladi

141 UFO va UVCh dan foydalanish antiseptikaning qaysi usuliga kiradi:
Mexanik
Aralash
Fizik
Kimyoviy

142 Yiringli jarohatga ishlatiladigan asboblar qanday eritmalarda yuqumsizlantiriladi:

Vodorod peroksid, gipoxlorid natriy
Xloramin B, furatsillin
Xlorli oxak, diotsid
Gipoxlorid natriy, yod

143 Xlorgeksidin-diglyukonat eritmasi qanday antiseptik moddalardan iborat:
20% xlorgeksidin + 70% etil spirti
20% xlorgeksidin + 96% etil spirti
40% xlorgeksidin + 70% etil spirti
5% xlorid natriy + 70% etil spirti

144 Quruq issiqlik bilan sterilizatsiya qiluvchi shkaflarda qanday rejimga amal qilinadi:
30 min 200S
60 min 180S
45 min 220S
120 min 180S

145 Oksidlovchilarga nimalar kiradi:
Xlorli oxak
N2O2 perekis vodorod, kaliy permanganat
Karbol kislotasi
Xloramin eritmasi

146 Avtoklavda 2atm bosimda xirurgik asboblar sterilizatsiya qilinadi:
120 min
45 min
60 min
90 min

147 Mexanik antiseptikaga qaysi usul tegishli:
Birlamchi xirurgik ishlov
Jaroxatnt drenajlash
Xavodagi mikroblarni yo‘qotish
Jaroxatni ultrotovush bilan davolash

148 Mexanik antiseptikani asosiy maqsadi:
Jaoroxatda qon aylanishini yaxshilash
Jaroxatdagi mikroblarni zararlantirish, rivojlanishini susaytirish

Og‘riqsizlantirish
Xavodagi miroblarni yo‘qotish

149 Immun tizimini holatini oshirish uchun nimadan foydalaniladi:
Gammaglobulin, anatoksin, immunomodulin
Keng spektrli antibiotiklar
Intoksikatsiyaga qarshi vositalar
Dezinfeksiyalovchi vositalar

150 Quruq issiqlik bilan sterilizatsiya qilishda instrumentlar 180S necha daqiqa sterilizatsiya qilinadi:
40 daqiqa
45 daqiqa
120 daqiqa
90 daqiqa

151 Bosim ostida bug‘ bilan operatsion materiallar sterilizatsiya qilinadi:
1 atm.b (120S)da-60daq 1,5 atm.b (127S)da-45daq 2atm.b (134S)da-40daq
1 atm.b (120S)da-30daq 1,5 atm.b (127S)da-40daq 2atm.b (134S)da-45daq
1 atm.b (120S)da-40daq 1,5 atm.b (127S)da-30daq 2atm.b (134S)da-60daq
1 atm.b (120S)da-45daq 1,5 atm.b (127S)da-60daq 2atm.b (134S)da-30daq

152 Instrumentlar yiringdan ifloslanganda1%li 1litr xloramin eritmasi qanday nisbatda tayyorlanadi:
20 ml 30%li pergidrol eritma, 975ml suv, 5gr poroshok
40 ml 30%li pergidrol eritma, 950ml suv, 10gr poroshok
60 ml 30%li pergidrol eritma, 930ml suv, 10gr poroshok
15 ml 30%li pergidrol eritma, 985ml suv, 5gr poroshok

153 Pol va devorlarni dezinfeksiya qilishda qaysi gurux vositalari qo‘llaniladi:
Xlorsaqlovchi dezinfektantlar
Faol kislorod brikmalari
Spirtli eritmalar
To‘rtlamchi ammoniy brikmalari

154 Pol va devorlarni dezinfeksiya qilishda xlorsaqlovchi vositalardan qancha miqdorda qo‘llaniladi:
1000 mg/l miqdorida
500 mg/l miqdorida
2000 mg/l miqdorida
100 mg/l miqdorida

155 Ultrafiolet lampalari yordamida xona havosini dezinfeksiya qilish vaqti qancha va kuniga necha marta o‘tkaziladi:
1 soat, kuniga 2marta
30 minut, kuniga 3-marta
1 soat, kuniga 3-marta
30 min ertalab ish boshlashdan oldin

156 Bemorning qusuq massalari, najasi qanday tartibda dezinfeksiya qilinadi:
Maxsus konteynerda 1 soat davomida
Maxsus konteynerda 90 daqiqa davomida
Maxsus konteynerda 2 soat davomida
Maxsus konteynerda 45 daqiqa davomida

157 B sinfga oid chiqindilarni utilizatsiya qilish qoidalari:
Maxsus konteynerda yig‘iladi
Sariq rangli yoki sariq markirovkali konteynerlarga yig‘iladi
Qora rangdagi maxsus qoplarga yig‘iladi
Maxsus konteynerda 45 daqiqa davomida

158 Elektrokardiografiya qanay tekshirish usuli:
Yurak mushagida xosil buluvchi elektrik jarayonlarni yozib olish usuli
Bosh miyadagi bioelektrik faol xarakatlarni yozib olish usuli
Magnit maydoni yordamida tekshirish usuli
Yurak kiskarishlarini kayd kiluvchi usul.

159 Elektroensefalografiya qanday tekshirish usuli:
Yurak mushagi kuztalganda unda kosil buluvchi elektrik jarayonlarni yozib olish usuli
Bosh miyada sodir bo‘ladigan bioelektrik faol xarakatlarni yozib olish usuli
Magnit maydoni yordamida tekshirish usuli
Yurak kiskarishlarini qayd qiluvchi usul

160 MRT - magnit - rezonans tomografiyasida qanay fizik faktordan foydalaniladi:
Magnit maydoni yordamida tekshirish usulidir
Elektr yordamida tekshirish usulidir
O‘zgaruvchi tok yordamida tekshirish usulidir
Mexanik tebranish yordamida tekshirish usulidir

161 Siydik yig‘ish qoidalarini ko‘rsating:
Ertalab, toza idish, yo‘llanma
Kechqurin, tashqi siydik chiqish yo‘llarini yuvish, toza idish, yo‘llanma
Ertalab, tashqi siydik chiqish yo‘llarini yuvish, toza idish, yo‘llanma
Kateter, toza idish, yo‘llanma

162 Balg‘amni yig‘ish qoidalarini aniqlang:
Ertalab, og‘iz bo‘shliqni tozalash, toza idish
Og‘iz bo‘shliqni tozalash, yo‘llanma
Ertalab, og‘iz bo‘shliqni tozalash, toza keng og‘izli, qopqoqli idish, yo‘llanma
Yo‘llanma, toza idish

163 Nechiporenko usuli bo‘yicha tekshirish uchun siydik qanday yig‘iladi:
Idishga siydikning”o‘rta qismi” yig‘iladi
Idishga siydikning”oxirigi qismi” yig‘iladi
Idishga siydikning”bosh qismi” yig‘iladi
Idishga sutkalik siydik yig‘iladi

164 Bolalik davrining o‘ziga xos xususiyatlari nimalar kiradi:
Butun bolalikni alohida davrlarga bo‘linishi
Bolaning chiniqtirish muolajalari
Bolaning sanitar holatini kuzatish
Bolani tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish

165 Bola bilan kommunikatsion muloqat qilish necha bosqichdan iborat:
3 bosqichdan
2 bosqichdan
4 bosqichdan
7 bosqichdan

166 Bolalar shifoxonasi qanday yoshdagi bolalarga mo‘jallangan:
7 yoshgacha
10 yoshgacha
5 yoshgacha
14 yoshgacha

167 Bemorni ko‘rayotgan xonada harorat nechiga teng bo‘lishi kerak:
27-29°S bo‘lishi kerak
20-22°S bo‘lishi kerak
16-18°S bo‘lishi kerak
32-34°S bo‘lishi kerak

168 Yuqumli kasallikga shubxa qilinganda bola qayerga joylashtiriladi:
Xonada qoldiriladi
Izolyatorga o‘tkaziladi
Operatsiya xonasiga
Diagnostik bo‘limshga

169 Bolalarda xamshiralik pavarishi bu:
Bolaning muommolaridan kelib chiqib parvarish qilish
Bo‘limning sanitariya holatini kuzatish
Tibbiy murlajalarni o‘tkazish
Dispanserizatsiya tadbirlarida ishtirok etish

170 Tibbiyot xamshirasi bo‘limda qanday nazoratni amalga oshiradi:
Bolada antropometrik o‘lchovlarni aniqlash
Bo‘limning sanitariya holatini kuzatish va nazorat qilish
Tibbiy murlajalarni o‘tkazish
Vrach ko‘rsatmalarini bajarish

171 Bolalarda xamshiralik parvarishining maqsadi nima:
To‘g‘ri ovqatlanish
Kasallikning oldini olish
Sog‘likni tiklash
Toza xavoda sayr qilish

172 Birinchi sut tishlari qaysi yoshdan chiqa boshlaydi:
8 oydan boshlab

2 oy
5-6 oydan boshlab
9 oydan boshlab

173 Vitamin D organizmda qayerda sintezlanadi:
Suyaklarda
Jigarda
Terida
Qonda

174 Bolalarda ter bezlari qachon ishlay boshlaydi:
5-6 oydan boshlab
7-8 oydan boshlab
12 oydan boshlab
3-4 oydan boshlab

175 Bola qaysi yoshda o‘zi mustaqil turishi mumkin:
11 oylikda
12 oylikda
8 oylikda
10 oylikda

176 Hayotning qaysi oyida bola boshini o‘zi ushlab turadi:
2-3 oydan boshlab
5 oydan boshlab
7 oydan boshlab
4 oydan boshlab

177 Yangi tug‘ilgan chaqaloqning yuragi 1 daqiqada necha marta uradi:
90-100 marotaba
75-85 marotaba
70-78 marotaba
120-160 marotaba

178 Tanadagi oq qon hujayralarining faoliyati qanday:
Nafas olish
Angidrid karbonatining almashinuvi
Himoya qiluvchi

Oziqlantiruvchi

179 Qaysi yoshgacha bolalarda suyak eng tez o‘sadi:
10 yoshgacha
5 yoshgacha
3 yoshgacha
7 yoshgacha

180 Yangi tug‘ilgan chaqaloqlarda qaysi haftadan boshlab shartli reflekslar paydo bo‘ladi:
2 hafta
3 hafta
4 hafta
1 hafta

181 Yangi tug‘ilgan chaqaloqlarda suyak yumshoqligining sababi nimada:
Organik moddalarning haddan tashqari ko‘payishi
Anorganik moddalarning haddan tashqari ko‘payishi
Gipervitaminoz
Ko‘p tuzlar mavjudligi

182 Umurtqa pog‘onasining ko‘krak qismi egriligi turi:
Lordoz
Kifoz
Kifo-skolyoz
Skolyoz

183 Raxit rivojlanishii necha bosqichga bo‘linadi:
Uchta bosqichga
To‘rt bosqichga
Besh bosqichga
Ikki bosqichga

184 Raxitning qaysi bosqichida simptomlar pasayadi:
Rekonvalesent bosqichida
Kasallikning avjida
Boshlang‘ich bosqich
Qoldiq bosqichi

185 Spazmofiliyaga olib keladigan sabablar:
Organizmda kalsiy miqdorining ortiqcha bo‘lishi
Organizmda kalsiyning yetishmasligi
Organizmda fosfor yetishmasligi
Organizmda temir moddasining ortiqcha bo‘lishi

186 Spazmofiliya asoratlariga kiradi:
Suyaklarning qiyshayishi
Miyada doimiy o‘choqlarning paydo bo‘lishi
Takroriy qusish
Tana vazning ortishi

187 Eksudativ- kataral diatezga nima sabab bo‘ladi:
Infeksiya
Gipovitaminoz
Yiringli o‘choqlar
Allergiya

188 Eksudativ diatezlarning nechta turi bor:
3 turi
2 turi
5 turi
4 turi

189 Sizga 1yoshga to‘layotgan bolaning onasi quydagi shikoyatlar bilan murojat qildi: Bola oxirgi vaqtlarda ko‘p qo‘zg‘aluvchan, uyqusi yuzaki, yig‘laganda daxanida titroq paydo bo‘ladi. Ensa soxasida sochlar to‘kilgan, siyraklashib qolgan Qanday kasallik xaqida o‘ylash mumkin:
Ekssudativ-kataral diatez
Raxit
Spazmofiliya
Pnevmoniya

190 Laringitda qanday yutal kuzatiladi:
Xurujsimon yo‘tal
Quruq yo‘tal
Nam yo‘tal
Ko‘piksimon balg‘amli

191 Keksalarni kandli diabet kasalligida parvarish qilishda quyidagiarni qaysi birining axamiyati yuq:
Bemorlarni tugri ovkatlanishni tashkil qilish
Bemorlarni teri va oyoklarini parvarish qilish
Kondagi kand mikdorini aniklashni urgatish
Bemorning jinsi,ijtimoiy holati

192 Keksalarda kuyidagi tayanch - xarakat tizimi kasalliklarning kaysilari xarakterli emas:
Osteoxondroz
Osteoporoz
Poliartritlar
Revmatizm

193 Depressiya nimani anglatadi:
Kayfiyatning pasayib ketishi
Uykuchanlik
Kutarinki kayfiyat
Tez fikrlash

194 Gastrostoma nima:
Bemorni ovkatlantirish maksadida oshkozondan ochilgan maxsus operatsion teshik
Bemorni ovkatlantirish maksadida maxsus zond
Bemorni ovkatlantirish maksadida maxsus voronka
Bemorni ovkatlantirish uchun maxsus choynakcha

195 Parenteral ovkatlanish nima:
Dori moddalarini mushak orasiga yuborish
Bemorni zond orqali ovkatlantirish
Tugri ichak orqali ozik moddalarni yuborish
Dori moddalarini venaga yuborish

196 Yotoq yaralar kimlarda kuzatiladi:
Noto‘g‘ri xarakatlanish oqibatida
Gipertoniya kasalligiga uchragan bemorlarda
Uzoq vaqt chalkancha yotishga majbur bo‘lgan axvoli ogir bemorlarda
Bexush yotgan bemorda

197 Yotoq yaralarni birinchi darajasida qanay uzgarishlar bo‘ladi:
Terida qizarishlar paydo bo‘ladi
Teri osti tukimasining zararlanib nekroz kuzatiladi
Terida qavaris, qubbali yaralar paydo bo‘ladi
Yotoq yaralar paydo bo‘ladi

198 Yotoq yaraning 2-bosqichida terida qanday o‘zgarishlar kuzatiladi:
Terining qizarishi, sarg‘ayishi
Terining tirnalishi, qavarish,qubbali yaralar
Teri osti tuqimasining zararlanishi va nekrozi
Cho‘ntaklar xosil bo‘lishi

199 Yotoq yaraning 3-bosqichida terida qanday o‘zgarishlar kuzatiladi:
Terining qizarishi, sargayishi
Terining tirnalishi, qavaris, qubbali yaralar
Teri osti to‘qimasining zararlanishi va nekrozi
Cho‘ntaklar xosil bulishi

200 Yotoq yaraning 4-bosqichida terida qanday o‘zgarishlar kuzatiladi:
Terining qizarishi, sarg‘ayishi
Terining tirnalishi, qavarish, qubbali yaralar
Teri osti tuqimasining zararlanishi va nekrozi
Mushak va suyakning chuqur zararlanishi

201 Rektal sun’iy ovqatlanish nima:
Organizmga tomir orqali oziq moddalarni yuborish
Bemorni zond orqali ovqatlantirish
Tug‘ri ichak orqali oziq moddalarni yuborish
Koshiqcha yordamida ovqatlantirish

202 Palliativ parvarish bu:
Og‘riq, boshqa simptomlarni yengillashtirishga yunaltirilgan yordam
Bemorga diagnostik tekshiruvlardan utishda yordam kursatish
Bemorda yangi davolash usulini kullash
Bedavo dardga chalingan bemorni operatsiyaga tayyorlash

203 Xospis deb qanay muassasaga aytiladi:
Davolash-profilaktika muassasasi

Kardiologiya markazi
Tibbiy -ijtimoiy muassasa
Reabilitatsiya markazi

204 Atrofiya –nima:
To‘qimalarning ko‘payishi
Hujayralar,to‘qimalar va a’zolarning hajm jixatdan kichrayishi
To‘qimalarning o‘lishi
To‘qimalarning tiklanishi

205 Qo‘lni yuqumsizlantirish sifatini nazorat qilish usulini aniqlang:
Biopsiya
Allergik sinama qo‘yish
Amidopirin sinamasi
Bakteriologik ekish

206 Qanday operatsiya diagnostik operatsiyaga hisoblanadi:
Appendektomiya
Limfa tuguni biopsiyasi
Panaritsiyni ochish
Jarohatlangan tomirni protezlash

207 Qaysi asorat operatsiyadan keyingi kech asorat hisoblanadi:
O‘pka shishi
O‘tkir yurak yetishmovchiligi
O‘tkir buyrak yetishmovchiligi
Sepsis

208 Qaysi belgi arterial qon ketishiga xos:
Qonni bir tekis oqim bilan oqishi
Och qizil rangli qonni turtkisimon oqishi
Tomchilab qon oqishi
Teri ostidagi ko‘karishlar

209 Qaysi belgi venoz qon ketishiga xos:
Qonni bir tekis oqim bilan oqishi
Och qizil rangli qonni turtkisimon oqishi
Tomchilab qon oqishi

Teri ostidagi ko‘karishlar

210 Konning kaysi shakliy elementlarida agglyutinogenlar bor:
Eritrotsitlarda
Leykotsitlarda
Limfotsitlarda
Ezonofillarda

211 Immobilizatsiya maqsadida Dezo bog‘lami qaysi shikastda qo‘llash mumkin:
Bo‘yin umurtqasi
O‘mrov suyagi
Bilak suyagi
Boldir suyagi

212 Pnevmotoraks ta’rifini aniqlang:
Plevra bo‘shlig‘iga qon yig‘ilishi
Plevra bo‘shlig‘iga yiring yig‘ilishi
Plevraning yallig‘lanishi
Plevra bo‘shlig‘iga havo yig‘ilishi

213 Qaysi holatda okklyuziyalovchi bog‘lam qo‘yiladi:
Son suyagi sinishida
Venoz qon ketishida
Yumshoq to‘qimalarni katta jarohatlarida
Ochiq pnevmotoraksda

214 Qorin bo‘shlig‘ida erkin havo qaysi kasallikda aniqlanadi:
Xolesistitda
O‘tkir pankreatitda
Me’da yarasi perforatsiyasida
Appenditsitda

215 Me’da yarasi perforatsiyasida og‘riqni xarakteri va lokalizatsiyasi toping:
O‘ng yonbosh soxada doimiy va kuchli og‘riq
O‘ng qovurg‘a soxasida doimiy keskin og‘riq
Epigastral soxada xanjarsimon og‘riq
Chap qovurg‘a soxasida doimiy keskin og‘riq

216 “Kofe quyqasi ” ko‘rinishidagi qusish qachon kuzatiladi:
O‘pkadan qon ketganda
Bavosilda
Qizilo‘ngachdan qon ketganda
Me’da va 12 barmoqli ichak yarasi qonaganda

217 Appenditsitda og‘riqning xarakteri va lokalizatsiyasini aniqlang:
O‘ng yonbosh soxada doimiy va kuchli og‘riq
O‘ng qovurg‘a soxasida doimiy keskin og‘riq
Belbog‘simon to‘mtoq og‘riq
Chap qovurg‘a soxasida doimiy keskin og‘riq

218 O‘tkir peritonitda qanday operatsiya qo‘llaniladi:
Diagnostik operatsiya
Rejali operatsiya
Simptomatik operatsiya
Shoshilinch operatsiya

219 Laparotomiya nima:
Ko‘krak qafasini kesib ochish
Ko‘krak qafasiga punksiya qilish
Qorin bo‘shlig‘ini kesib ochish
Qorin bo‘shlig‘ini punksiya qilish

220 Burun va quloqdan qon va likvor oqishi qaysi kalla-miya shikastiga xos:
Bosh miya chayqalishi
Bosh miya ichki bosimini oshishida
Bosh miya ezilishi
Kalla asosini sinishi

221 Qaysi simptom bosh miya chayqalishining asosiy simptomi hisoblanadi:
Retrograd amneziya
Reflekslarni kuchayishi
Reflekslarni so‘nishi
Qorachiqning kengayishi

222 Miya shishini oldini olish va kurashish maqsadida nima qo‘llaniladi:
Oksigenoterapiya

Antibiotikoterapiya
Fizioterapiya
Degidratatsiyalovchi davo

223 “Ko‘zoynak simptomi” qaysi shikastda kuzatiladi:
Bosh miya chayqalishi
Bosh miya ichki bosimini oshishida
Bosh miya lat yeyishi
Kalla asosini sinishi

224 “Prujinali fiksatsiya” qanday shikast simptomi:
Chiqish
Sinish
Lat yeyish
Qon ketishi

225 Qaysi belgi suyak sinishining absolyut belgisi hisoblanadi:
Og‘riq
Patologik harakatchanlik, deformatsiya
Gematoma
Boylamlar cho‘zilishi

226 Krepitatsiya qaysi shikast belgisi:
Chiqish
Sinish
Lat yeyish
Qon ketishi

227 Furunkulni ta’rifini aniqlang:
Ter bezining yallig‘lanishi
Miya pardasining yallig‘lanishi
Limfa tugunlarini yallig‘lanishi
Bitta soch xaltachasining yallig‘lanishi

228 Yiringli jarohatni mexanik davolash usulini aniqlang:
Yodonat bilan ishlov berish
Jarohat chetini sog‘ to‘qima chegarasidan kesish
Qon quyish

Antibiotilar bilan davolash

229 Limfadenit ta’rifini aniqlang:
Limfa tomirining yallig‘lanishi
Venoz tomirning yallig‘lanishi
Ko‘krak bezini yallig‘lanishi
Limfa tugunining yallig‘lanishi

230 Yiringli xirurgiyada operativ davolash uchun ko‘rsatmani aniqlang:
Mahalliy temperatura
Giperemiya
Infiltrat
Flyuktuatsiya simptomi

231 Yiringli jarohatni kimyoviy davolash usulini aniqlang:
Vitaminoterapiya
Jarohatni katta ochish
Vitaminlarni qo‘llash
Antiseptiklarni qo‘llash

232 Yiringli jarohatni biologik davolash usulini aniqlang:
Antiseptiklarni qo‘llash
Vitaminlarni qo‘llash
Vaksina va zardoblarni qo‘llash
Yodonat bilan ishlov berish

233 Jarohatga nima uchun drenaj qo‘yiladi:
Epitelizatsiyani tezlatish uchun
Qon to‘xtatish uchun
Immunitetni oshirish uchun
Ajralmalarni yaxshi ajralishi uchun

234 Narkozning nechta bosqichi bor:
2 ta
3 ta
4 ta
5 ta

235 Operatsiyadan keyin siydik ajiratish tizimida uchraydigan asorat:
Qon ketishi
Prostatit
O‘tkir siydik tutilishi
Pieloneftit

236 Chuvalchangsimon o‘simtaning yallig‘lanishiga nima deyiladi:
O‘tkir xolesistit
O‘tkir appenditsit
O‘tkir pankreatit
O‘tkir gastrit

237 Operatsion blok derazalari qaysi tomonga qaragan bo‘lishi kerak:
Shimol va shimol-g‘arb
Janub va janub-sharq
Sharq va sharqiy-shimol
Janub va sharqiy-sharq

238 Operatsiya xonalari qaysi antiseptik vositalar bilan tozalanadi:
1% xloramin eritmasi 3% N2O2
0,5% xloramin eritmasi gipoxlorid kalsiy
2% dezoksan
6% N2O2

239 Qon tekkan jixozlarni artish uchun xloramin va gipoxlorid kalsiyning necha % eritmasidan foydalaniladi:
3% li eritmasi
5% li eritmasi
6% li eritmasi
2% li eritmasi

240 To‘qimalardagi chegaralangan yiringli yallig‘lanish bu:
Absess
Flegmona
Osteomielit
Saramas

241 To‘qimalarni chegaralanmagan yiringli yallig‘lanishi bu:
Flegmona

Absess
Saramas
Osteomielit

242 Jarohatlangan suyak va bo‘g‘imlar yuzasini xarakatsizlantirish nima deb ataladi:
Immobilizatsiya
Transportirovka
Shinalash
Gipslash

243 Lat yeganda birinchi amalga oshiriladigan harakat:
Muzli xalta qo‘yish
Issiq kompress ko‘yish
Massaj qilish
Bo‘g‘im punksiyasini o‘tkazish

244 Qaysi suyaklar singanda Diterixs shinasi bilan immobilizatsiya qilinadi:
Yelka, bilak suyalari
Son va boldir suyagi
Chanoq suyagi
Umurtqa pog‘onasi singanda

245 Teri va shilliq qavatlar butunligi buzilmasdan yuzaga kelgan shikastlarga qanday shikastlar deyiladi:
Yopiq mexanik shikastlar
Ochiq mexanik shikastlar
Kombinatsiyalangan shikastlar
Kimiyoviy shikastlar

246 Qattiq bog‘lamlarning qanday turlari bor:
Gipsli, kraxmalli va dekstrinli
Bintli, sementli
Taxtakachli, Dezo bog‘lami
Kraxmalli, chepes bog‘lami

247 Parenximatoz qon okishi qanday to‘xtatiladi:
Jgut bog‘lash
Qisqich qo‘yish

O‘simliklar yordamida
Jarroxlik usuli bilan

248 Sterilizatsiyadan oldin barcha tibbiy buyumlarni nima maqsadda tozalovdan o‘tkazish zarur:
Oqsil, yog‘, qon, dori preparatlari qoldiqlarini yo‘q qilish maqsadida
Asboblarga chang tegmaslik maqsadida
Asboblarni sterillash maqsadida
Asboblarni zanglashini oldini olish maqsadida

249 Oilaviy shifokorlik poliklinikasida homiladorlar uchun qanday hujjat to‘ldiriladi:
Ambulator kasallik karta
Tug‘ruq tarixi
Homilador va tuqqan ayolni shaxsiy varaqasi va almashinuv varaqasi
Kasallik tarixi

250 Tashqi jinsiy a’zolarga nimalar kiradi:
Qov, katta va kichik uyatli lablar, klitor, qin
Qov, katta va kichik uyatli lablar, klitor, qin, bachadon
Qov, katta va kichik uyatli lablar, qin daxlizi, qizlik pardasi, bartolin bezlari, klitor
Qin, bachadon, bachadon naylari

251 “Qinni o‘z-o‘zini tozalash” qanday ro‘y beradi:
Patogen mikroblar kislotali muhitda o‘ladi
Qin batsillalari tashqaridan tushuvchi patogen mikroblarni parchalaydi
Mikroblar ishqoriy muhitda parchalanadi
Kislotali muhitda mikroblar erib ketadi

252 Ayollar ichki jinsiy a’zolariga qaysi a’zolar kiradi:
Vulva, qin dahlizi, bachadon, tuxumdon,bachadon naylari
Qin, qin daxlizi,bachadon, tuxumdon
Tuxumdon, bachadon, bachadon naylari, klitor
Qin, bachadon, bachadon naylari, tuxumdon

253 Bachadon naylari qanday bo‘limlardan iborat:
Interstitsial, ampulyar
Shilliq, mushak va seroz

Interstitsial, istmik, ampullyar
Mushak, shilliq

254 Hayz siklini o‘rtacha davomiyligi necha kun:
21-35 kun
28 kun
24-26 kun
40-50 kun

255 Chanoq qaysi suyaklardan tashkil topgan:
2 ta nomsiz suyak, dumg‘aza, dum suyaklardan
Son, boldir, dumg‘aza suyaklardan
Son,simfiz,dumg‘aza
Dumg‘aza, simfiz, dum suyaklardan

256 Normal chanoq o‘lchamlarini aniqlang:
25-28-31-20sm
23-25-28-18 sm
24-27-30-20sm
20-23-26-16sm

257 Kichik chanoq qanday tekisliklarga bo‘linadi:
Kirish va chiqish tekisligi
Kichik chanoq bo‘shlig‘i, kengaygan tekisligi, toraygan tekisligi va chiqish tekisligi
Kirish tekisligi, keng qismi tekisligi, tor qismi tekisligi va chiqish tekisligi
Katta va kichik chanoq

258 Tuxum hujayra implantatsiyasi nima:
Bachadon naylarida tuxum hujayrani harakatlanishi
Urug‘langan tuxum hujayrani bachadonga payvandlanishi
Urug‘langan tuxum hujayraga bo‘linishi
Tuxum hujayraning yetilishi

259 Plasentani to‘liq shakllanishi homiladorlikning qaysi muddatiga to‘g‘ri keladi:
Homiladorlikning 10-12 haftasiga
Homiladorlikning 12-14 haftasiga

Homiladorlikning 16-18 haftasiga
Homiladorlikning 8-10 haftasiga

260 Homiladorlikning aniq belgilariga qaysi belgilar kiradi:
Pigment dog‘lari va homiladorlik striyalari paydo bo‘lishi
Ko‘ngil aynash, ertalab qayd qilish, ta’m va hid bilishni o‘zgarishi
Bachadon kattalashishi, uning konfiguratsiyasini o‘zgarishi, sezuvchanligini ortishi, qin sianozi
Homilani qimirlashi, xomila bo‘laklarining qorinni oldingi devoridan paypaslanishi, homilani yurak urushini eshitilishi

261 Homiladorlikning qaysi haftasida bachadon tubi xanjarsimon o‘siq ostida joylashadi:
Homiladorlikning 36 haftasida
Homiladorlikning 32 haftasida
Homiladorlikning 24 haftasida
Homiladorlikning 28 haftasida

262 Tug‘ruqning taxminiy muddati qanday aniqlanadi:
Oxirgi hayzning 1-kunidan va homilaning 1-qimirlagan kunidan
Homilaning 1-qimirlagan kunidan
Ayollar maslaxatxonasiga 1-kelgan kunidan
Oxirgi hayzning 1-kunidan

263 Homila pozitsiyasi deb nimaga aytiladi:
Homila kuragini bachadonni sagital tekisligiga nisbatan joylashuvi
Homila orqasini bachadon oldingi va orqa yuzasiga nisbatan joylashuvi
Homila mayda qismlarini bachadonni u yoki bu yonboshiga nisbatan joylashuvi
Homila kuragini bachadon yon devorlariga nisbatan turishi

264 Tashqi akusherlik tekshiruvini 2 amalida nima aniqlanadi:
Homilaning oldinda yotgan qismini
Homilaning pozitsiyasi va turlari
Homilaning oldinda yotgan turi
Homilaning vaziyatini

265 Homiladorlikni ehtimolga yaqin belgilariga qaysi belgilar kiradi:
Hayzni to‘xtashi, bachadon bo‘yni va qin devorini sianozi, bachadonninig kattalashuvi, uning shakli va konsistensiyasini o‘zgarishi

Homilaning qimirlashi, yurak urushini eshitilishi, mayda qismlarini paypaslash
Biologik sinamalarni musbatligi, UTT homilani topilishi
Hayzni to‘xtashi, ko‘ngil aynashi, qayt qilish

266 32 haftalik homiladorlikda bachadon tubi qayerda joylashadi:
Kindik yonida
Kindik va to‘sh suyagi orasida
2-3 barmoq kindikdan yuqori
Diafragma ostida

267 40 haftalik homiladorlikda qorin aylanasi necha sm.ga teng:
80-85 sm
95-100 sm
75-80 sm
120-140 sm

268 Homiladorlikning gumonli belgilariga qaysi belgilar kiradi:
Bachadonni kattalashishi, ko‘ngil aynishi, ta’m sezishni, hid bilishning o‘zgarishi
Homila qismlarini aniqlash, sut bezlari siqilganda og‘iz suti tomchilari chiqishi
Ta’m sezishni buzilishi,hayzni to‘xtashi, dog‘larning paydo bo‘lishi
Ko‘ngil aynashi, qayt qilish, dog‘larni paydo bo‘lishi

269 Homiladorlikdagi havfli belgilarga kiradi:
Kayfiyatningo‘zgarishi,qorinning kattalashuvi
Jig‘ildon qaynashi
Yurishda qiyinchilik
Qorinda kuchli og‘riq, qon ketish

270 Homiladorlikning ikkinchi trimestrida ko‘p uchraydigan asorat bu-:
Plasentaning barvaqt yetilishi
Gipertenziv sindrom
Ikkilamchi plasentar yetishmovchiligi
Plasentaning kech yetilishi

271 Navro‘za-37 yoshdUning 4 ta farzandi bor. (2 qiz va 2 o‘g‘il) U KOKlarni 3yildan beri qabul qiladi. Lekin hozirda samarali va doimiy

usulni qo‘llashni xoxlaydi. (boshqa tug‘ishni istamaydi) Navro‘za uchun kontrasepsiyaning qaysi usulini maqbul deb o‘ylaysiz:
Gormonal usulni davom ettirish
To‘siq usuli
Ixtiyoriy jarroxlik usuli
Kalendar usuli

272 Madina-20 yoshdTurmushga chiqmagan bo‘lib, lekin jinsiy hayot kechiradi. Homilador bo‘lishni va JYBYu kasalliklarni yuqishini xoxlamaydi. Siz unga kontrasepsiyaning qaysi usulidan foydalanishni maqbul deb hisoblaysiz:
BIV
KOK
To‘siq usuli
Ixtiyoriy jarroxlik usuli

273 Kontrasepsiyaning zamonaviy usullariga nimalar kiradi:
Gormonal, BIV
BIV, IJK
To‘siq, tabiiy usul
To‘siq, BIV, IJK, gormonal

274 Ayollar ixtiyoriy jarroxlik kontrasepsiyasi kimlarda o‘tkaziladi:
O‘smirlarda
Tug‘magan ayollarda
Yoshi 35dan katta,3va undan oshiq farzandlari bor,boshqa tug‘ish istagi yo‘q ayollarda
2 ta tuqqan ayollarda

275 Homiladorlikni aniqlashda quyidagi qaysi maxsus tekshiruvlar o‘tkaziladi:
Rengenografiya
Qin ko‘zgularida va bimanual tekshirish
Flyuragrafiya
Auskultatsiya

276 Oilaga to‘g‘ri ta’rif berilgan qatorni toping:
Oila-odamlarning tabiiy,iqdisodiy,huquqiy,ma’naviy munosabatlariga asoslangan ijtimoiy birlikdir
Oila-umumiy uy-ro‘zg‘or yuritish

Oila-umumiy bola koʻrish
Oila- bu mulkiy munosabatlar

277 Oilaviy nizo nima:
Er va xotin kelishmovchiligi
Qaynona va kelin orasidagi kelishmovchiligi
Oila hayotida namoyon boʻladigan psixologik va ijtimoiy keskin vaziyat
Aka-ukalar orasidagi kelishmovchiligi

278 Homiladorlik normal kechganda tugʻruqqacha birlamchi tibbiy xizmat muassasalariga necha marta tashrif amalga oshirilishi kerak:
Koʻrik shart emas
2-3-marta
Kamida 6-7-marta
9-10-marta

279 Oilada onalikni muhofaza qilish bu:
Yaxshi jihozlangan uy-joy bilan ta'minlash
Ayolni moddiy ta'minlash
Ayolni uy ishlaridan ozod qilish
Ayol va bolaning oila diqqat markazida boʻlishi

280 Xomila boshining konfiguratsiyasi deb nimaga aytiladi:
Boshning oʻz formasini oʻzgartirish qobiliyati
Bosh suyagini bir biriga oʻzaro siljishi
Bosh suyagini kirishishi
Katta liqildoqni hajmini kichrayishi

281 Tugʻruqning 1 davrini tugallanganlik belgisini aniqlang:
Oldinda yotgan qismini pastga xarakatlanishi
Bachadon boʻynini toʻliq ochilishi
Oldinda yotgan qismini yuqori turishi
Qogʻonoq suvlarining ketishi

282 Ensa oldidan yotishning oldingi turida homila boshi qaysi oʻlchamda yotadi:
Toʻgʻri oʻlchamda
Kichik qiyshiq oʻlchamda
Oʻrta qiyshiq oʻlchamda

Katta qiyshiq o‘lchamda

283 Tug‘ruq qachon tugaydi:
Homilani tug‘ilishi bilan
Bachadon bo‘yni va oraliqni ko‘rilgandan keyin
Homila va yo‘ldosh tug‘ilgandan keyin
Qog‘onoq suvlarining ketishi bilan

284 Homila tug‘ilgandan keyin bachadon tubi balandligi qayerda joylashadi:
Kindikdan 3 barmoq yuqorida
Kindik bilan teng
Kindikdan 2 barmoq pastda
Kindikdan 2 barmoq yuqorida

285 Tug‘ruqdan keyingi bachadonni o‘z holiga qaytishi qachon yakunlanadi:
Tug‘ruqdan keyingi 1-chi haftani ohirida
Tug‘ruqdan keyingi 4-5chi haftada
Tug‘ruqdan keyingi 2-3chi haftada
Tug‘ruqdan so‘ng darhol

286 Sog‘lom tuqqan ayollarda sut qachon ajrala boshlaydi:
Chilla davrining 1-chi sutkasida
Chilla davrining 2-3 kunidan
Chilla davrining 4-5 kunidan
Chilla davrining 7 kunidan

287 Chaqaloqning muddatiga yetmay tug‘ilganlik belgilariga kiradi:
Yirik homila, terisining burishganligi
Choklarning bitishi, katta liqildoqni o‘lchovini kichrayganligii va terisining burishib qolishi
O‘g‘il bolalarda tuxumlari yorg‘oqda joylashmagan, qizlarda jinsiy yoriqlar ochiq, bosh suyaklari yumshoq, chok va liqildoqlar keng
Vazni 3100gr.uzunligi52 sm

288 Chilla davrida tuqqan ayol parvarishida nimalarga e’tibor berish kerak:
Shaxsiy gigiena,kun tartibi, parxez
Hech qanday cheklovlar kerak emas
Faqat shaxsiy gigiena qoidalariga amal qilish kerak
Faqat kun tartibiga amal qilish kerak

289 Chilla davrida ayolda uchrashi mumkin bo‘lgan havfli belgilar
Charchash,uyquchanlik
Qon ketishi,isitma,qorin pastidagi og‘riqlar, ruhiy o‘zgarish
Og‘iz sutining ajralishi
Loxiyalarning kelishi

290 Muddatli tug‘ruq. 28 yoshli tug‘uvchi ayol vazni 3900 g, uzunligi 53sm tirik,faol, yetilgan chaqaloqni tug‘di. Chaqaloqning tug‘ilganida yurak urushi 1daqiqada 120-marta, teri koplamlari pushti rangda, nafas olishi 1daqiqada 40-marta , fiziologik reflekslar yaxshi ifodalangan. Apgar shkalasi bo‘yicha chaqaloqqa baxo bering:
12 ball
8 ball
7 ball
10 ball

291 Tug‘ruqdan keyingi erta chilla davri. Qon ketishi 250 ml, qon ketishi davom qilayapti. Bachadon tubi kindik soxasida, yumshoq.Yo‘ldosh ko‘zdan kechirilganda butunligi aniqlandi. Tashqi massajdan keyin bachadon qisqardi, lekin yana bo‘shashdi. Ketgan kon mikdori 400 ml, ayolning rangi oqargan, boshi aylanayapi. AQB- 90/50 mm sim. ust., puls minutga 100-marta urayapti. Erta chilla davridagi tug‘ruqning qaysi asorati rivojlangan deb o‘ylaysiz:
Yo‘ldosh bo‘laklarini bachadonda ushlanib qolishi
Yumshoq tug‘ruq yo‘llari shikastlari
Qonning ivish hususiyatining pasayishi
Bachadondan gipo-atonik qon ketishi

292 14 yoshli qiz ginekologiya bo‘limiga quyidagi shikoyatlar bilan keldi: jinsiy a’zolardan ko‘p mikdorda qonli ajralmalar kelish, bosh aylanishi, xolsizlik. Anamnezidan: Bolaligida ko‘p kasal bo‘lib, nimjon o‘sgan. 3 oy oldin birinchi hayz sikli boshlangan, muntazam emas, jinsiy aloqada bo‘lmagan. Qaysi kasallik haqida o‘ylash mumkin:
Yuvenil qon ketishi
Nevrosteniya
Vulvit
Vulvavaginit

293 Qiz bolalarda jinsiy a’zolarining qaysi kasalliklari ko‘proq uchraydi:
Vulvit, endometrit

Kolpit
Metrit
Vulvovaginit, vulvit

294 Qizlarning ichki jinsiy a’zolarini tekshirishda qaysi tekshirish usullari o‘tkaziladi:
Qin orqali bimanual tekshirish, pertubatsiya
To‘g‘ri ichak orqali bimanual tekshirish, UTT
Qin ko‘zgulari orqali tekshirish
Endoskopik

295 Ginekologik bemorlarni tekshirishda qo‘llanishi shart bo‘lgan ob’ektiv usullarni aniqlang:
Tashqi jinsiy a’zolarni ko‘zdan kechirish, qin orqali 2 qo‘l bilan va ko‘zgular yordamida tekshirish
To‘g‘ri ichak orqali tekshirish va bakteriologik tekshirish
Bakteriologik tekshirish va endoskopik tekshirish
Bakteroskoptk tekshirish

296 Ginekologik bemorlarni asosiy shikoyatlarni belgilang:
Bosh og‘rig‘i va ichak funksiyasini buzilishi
Ichak funksiyasini buzilishi va hayzni buzilishi
Ko‘ngil aynishi, og‘riq
Qorinning pastki qismida og‘riq ,oqchil, hayzni buzilishi

297 Amenoreya ta’rifini aniqlang:
Hayzni 6 oy vaundan oshiq kelmasligi
Bachadondan qon ketishi
Yuvenil qon ketish
Hayzni uzoq davom etishi

298 Algodismenoreya ta’rifini aniqlang:
Hayz siklini to‘xtashi
Hayzning og‘riq bilan kechishi
Hayzni 6 oy vaundan oshiq kelmasligi
Yuvenil qon ketish

299 Bachadon naylari o‘tkazuvchanligini tekshirish uchun qanday usullardan foydalaniladi:

Kolposkopiya va sitologik tekshirish
Sitologik tekshirish, pertubatsiya, gidrotubatsiya
Qorin bo‘shlig‘ini orqa gumbaz orqali punksiyasi
Salpingografiya, pertubatsiya, gidrotubatsiya

300 Birinchi marta ko‘rikka kelgan homilador ayol xonaga kirib vrach asbob-anjomlarini ko‘rib, birdaniga rangi oqarib,hushidan ketdi.Ayolni ko‘zdan kechirganda:teri qoplamlarining rangi oqargan,nafas olishi yuzaki,AQB 100\60,puls minutiga 54-marta,siyrak urayapti. Ayolda qanday holat yuz berganligini aniqlang:
Kollaps
Shok
Hushdan ketish
Yurak yetishmovchiligi

301 Birinchi tug‘uvchi ayol qorinni pasti va bel sohasida dardsimon og‘riqlar,jinsiy a’zolardan shilimshiq ajralma kelishiga shikoyat bilan tug‘ruqxonaga keldi.Qin orqali tekshirishda quyidagilar aniqlandi:bachadon bo‘yni 2 smga kaltalashgan,yumshoq va chanoq o‘qiga mos joylashgan,bachadon bo‘yni kanali 1 ko‘ndalang barmoqqa kengaygan.Bachadon bo‘ynini “yetilish”darajasini aniqlang:
Bachadon bo‘yni yetilmagan
Bachadon bo‘yni yetilmoqda
Bachadon bo‘yni to‘liq yetilmagan
Homilador ayol bachadon bo‘yni

302 Bepushtlik-bu …:
Yetuk organizmning nasl qoldirish qobiliyatining yo‘qolishidir
Nasl berish qobiliyatini paydo bo‘lishidir
Tuhumdon yallig‘lanishi
Bachadon yallig‘lanishi

303 Anesteziya nima:
Yurak kasalliklari
Miyaga qon kuyilishi
Og‘riqsizlantirish
Qon bosimining pasayishi

304 Anafilaktik shokda qanday shoshilinch yordam ko‘rsatiladi:
Oyoqlarni yuqoriga qilib yotqizish

Toza havo kelishini ta’minlash
Allergen ta’sirini to‘xtatish
Nashatir spirti hidlatish

305 Alkogoldan zaharlanish belgilarini ko‘rsating:
Teri yopishqoq, sovuq, yuz terisi va kon’yunktiva giperemiyasi
Tana haroratining pasayishi, noixtiyoriy ich kelish va siydik tuta olmaslik
Ko‘z qorachiqlari toraygan, nafas buzilishi kuzatiladi
Nafas o‘zgarmagan, puls kuchsiz,kamaygan

306 Shifoxonaga umumiy ahvoli to‘satdan yomonlashgani tufayli 10 yil davomida qandli diabet bilan kasalllangan bemor murojaat qildi, bu bemorning ahvoli quyidagicha: umumiy holsizlik, poliuriya, polidipsiya, ko‘ngil aynishi va qusish, uyquchanlik kuzatiladi. Og‘zidan aseton xidi keladi, nafas olishi Kussmaulcha. Siydikda keton tanachalari va glyukoza sezilarli miqdorda aniqlandi. Ushbu bemorning hozirgi og‘ir ahvoliga qandli diabetning qayday asorati sabab bo‘lgan:
Gipoglikemik koma
Ketoatsidotik koma
Uremik koma
Jigar komasi

307 Diabetik komaning klinik belgilari:
Talvasa
Teri qoplamining nam bo‘lishi
Og‘izdan aseton hidini kelishi
Ochlikni his qilish

308 Bemor B, 33 yoshda u 23 yoshidan buyon qandli diabet bilan og‘riydi. Bemor kechqurungi ovqatni yemasdan doimiy dozada insulin qabul qildi. U tunda to‘satdan qattiq qo‘rquv va vaximadan uyg‘onib ketdti. Bemorning es- xushi chalkashgan, qattiq terlagan, holsiz, yurak urishi tezlashgan, oyoq –qo‘llari qaltiraydi. Qondagi qand miqdori 2,8 mmol/l ko‘rsatmoqda. Bu holat qachon sodir bo‘lishi mumkin:
Qonda glyukoza miqdori pasayganda
Qonda glyukoza miqdori oshganda
Qonda billirubin miqdori pasayganda
Qonda xolesterin miqdori pasayganda

309 Miokard infarktini tipik formasini aniqlang:

Anginoz
Og‘riqsiz
Abdominal
Astmatik

310 60 yoshli bemor erkak kishi to‘sh ostidagi og‘riqqa shikoyat qilyapti. Bu og‘riqlar chap qo‘l, kurakka tarqalayotgani va og‘riq stress natijasida kuchayganini aytdi. Og‘riq nitroglitserin qabulidan so‘ng bartaraf bo‘ldi. Qanday kasallik haqida o‘ylash mumkin:
Kollaps
Xushdan ketish
Stenokardiya
Gipertoniya kasalligi

311 65 yoshli bemor to‘sh ostidagi “hanjarsimon” og‘riq va bu og‘riqning chap qo‘l, kurak, jag‘ning pastki qismiga tarqalayotganidan shikoyat qilyapti. Og‘riq 30 daqiqadan ortiq davom etgani va nitroglitserin ta’siridan og‘riq qolmaganligi aniqlandi. Qanday kasallik haqida o‘ylash mumkin:
Stenokardiya
Gipertoniya kasalligi
O‘tkir miokard infarkti
Kollaps

312 Bemor B, 33 yoshda u 23 yoshidan buyon qandli diabet bilan og‘riydi. Bemor kechqurungi ovqatni yemasdan doimiy dozada insulin qabul qildi. U tunda to‘satdan qattiq qo‘rquv va vaximadan uyg‘onib ketdti. Bemorning es- xushi chalkashgan, qattiq terlagan, holsiz, yurak urishi tezlashgan, oyoq –qo‘llari qaltiraydi. Qondagi qand miqdori 2,8 mmol/l ko‘rsatmoqda. Bu holat qachon sodir bo‘lishi mumkin:
Qonda glyukoza miqdori pasayganda
Qonda glyukoza miqdori oshganda
Qonda billirubin miqdori pasayganda
Qonda xolesterin miqdori pasayganda

313 Patronaj hamshirasini asosiy prinsiplarini aniqlang:
Barcha yoshdagi va jinsdagilarni davolash, har bir oila – bir hamshira kuzatuvida
Har bir oiladagi bolalar va katta erkaklarni davolash – bir shifokor kuzatuvida
Ikki jins bolalar va kattalarni qisqa vaqt davomida davolash

Bir shifokor tomonidan bolalarni uzoq vaqt davomida kuzatish va davolash

314 Dispanserizasiya nima:
Yalpi aholini sog‘lig‘ini nazoratini uzluksiz olib borish
Epidemiyaga qarshi kurash
Davolash ishlarini olib borish
4-yilda bir marta nazoratdan o‘tish

315 Reyting ballning eng ko‘p miqdorining 96 foizidan 100 foizigacha yig‘ilsa nechi foiz ustama haq to‘lanadi:
5 foiz
15 foiz
10 foiz
20 foiz

316 Xonadoning tibbiy ijtimoiy holatini o‘rganish bir yilda necha marotaba amalga oshiriladi:
Bir yilda ikki marta
Bir yilda bir marta
Bir yilda to‘rt marta
Bir yilda olti marta

317 Qariyalarni uy sharoitida patronajini amalga oshirish jarayonida quyidagilar bajarilmaydi:
Arterial qon bosimini o‘lchash
Pulsini baholash
Nafas maromini sanash
Qariyalarning vazini o‘lchash

318 Yurak-qon tomir kasalliklari havfining o‘rta darajasi bo‘lgan patsientlarni QVP/OP vrach ko‘rigiga chaqiruvi qancha vaqt oralig‘ida amalga oshiriladi:
Har 3 oyda
Har 3-6 oyda
Har oyda
Yiliga 1-marta

319 Chilla davridagi ayol patronaji necha marta o‘tkaziladi:
Tug‘ruqdan keyingi 42 kun ichida 3-marta

Tug‘ruqdan keyingi 42 kun ichida 3-marta, tuqqandan so‘ng 2oyda 1-marta6oyda 1-marta
Tuqqandan so‘ng 6oyda 1-marta
Tuqqandan so‘ng 42 kun ichida 2-marta

320 Chilla davridagi chaqaloqlar birinchi patronaji qachon o‘tkaziladi:
Tug‘ruqxonadan chiqqandan keyin 3 kun ichida
Tug‘ruqdan keyin 1 oy ichida 1-marta
Tug‘ruqdan keyin 1 oy ichida 2marta
Har oyda 1-marta

321 “D” nazoratidagi bemorlarni tibbiy ko‘rikka chaqirish qanday muddatlarda o‘tkaziladi:
Reja asosida, ko‘rsatmaga asosan yiliga 2, 4 yoki 6-marta
Yiliga 1-marta
Yiliga 2-marta
Har oyda 1-marta

322 Tug‘ish yoshidagi ayolni tibbiy ko‘rikka chaqirish qanday muddatlarda o‘tkaziladi:
Reja asosida, ko‘rsatmaga asosan yiliga 2-marta
Yiliga 1-marta
Yiliga 4-marta
Har oyda 1-marta

323 Kariyalar patronaji qanday muddatlarda o‘tkaziladi:
Har oyda 1-marta
Yiliga 1-marta
Yiliga 2-marta
Har chorakda

324 Nogironlar patronaji qanday muddatlarda o‘tkaziladi:
Har oyda 1-marta
Yiliga 1-marta
Yiliga 2-marta
Har chorakda

325 Surunkali yuqumsiz kasalliklarni havf omillarini belgilang:

Yoshi 40 yoshdan kattalar, chekuvchilar, bel aylanasi ayollarda-90 sm, erkaklarda 100 smdan ko‘p bo‘lsa
O‘smir chekuvchilar
Bel aylanasi ayollarda-80 sm, erkaklarda 90 smdan ko‘p bo‘lsa
Yoshi 30 yoshdan kattalar, yaqin qarindoshlarida surunkali yuqumsiz kasalliklar aniqlanmagan

326 Aholini patronaj bilan qamrab olish bo‘yicha ma’lumotlarni hamshira qaysi jurnalda qayd qiladi:
Oila hamshirasining kundalik faoliyat jurnalida
Umumiy amaliyot vrachi jurnalida
BTSYoMga kelganlarni qayd qilish jurnalida
Uyga chaqiruvchilarni qayd qilish jurnalida

327 Birlamchi tibbiy sanitariya muassasalariga qaysi muassasalar kiradi:
KTMP, OP QOP, QVP
Statsionar, dispanser, OP
QVP, OP, statsionar
KTMP, QOP, dispanser

328 Bolalarni emlashdan keyingi nazorati necha kun davom etadi:
Emlangandan so‘ng uchinchi kuni
Emlangandan so‘ng bir hafta davomida
Emlangan kunini ertasi va ikki kun davomida
Emlangandan so‘ng bir oy davomida

329 064 hujjat shakli kim tomonidan yuritiladi:
Katta hamshira
Patronaj hamshira
Emlash hamshira
Laborant

330 Patronaj hamshirasi tomonidan yuritiladigan hujjatni ko‘rsating:
Oila pasporti
Hudud jurnali
Oila hamshirasining kundalik faoliyat jurnali
Shifokorning kundalik qabul jurnali

331 Maktab yoshidagi bolalarni bir yilda nechi marta tibbiy koʻrikdan oʻtkaziladi:
Bir yida uch marta
Bir yilda toʻrt marta
Bir yilda bir marta
Har yarim yilda

332 Bolalarda antrapometrik koʻrsatkichlarga nimalar kiradi:
Boʻy uzunligi,vazni koʻkrak qafasini kengligi
Labarator tekshiruvlar
Bolani umumiy koʻrinishi
Bolani asab sistemasi

333 Jamoada chekadigan oʻsmirlarda qanday oʻzgarishlar kuzatiladi:
Hotira susayadi, ma'lumotlarni oʻzlashtira olmaydi
Sababsiz kulgi
Ish faoliyatini yaxshilanishi
Kayfiyatni koʻtarilishi

334 Bolani necha yoshidan boshlab sut tishlari tushib, oʻrniga doimiy tishlar chiqa boshlaydi:
6-7 yoshda
4-5 yoshda
5-6 yoshda
3-4 yoshda

335 Temiryoʻl, avtomobil, metropoliten, transportda yuz bergan halokatlar qaysi xarakterli favqulotda vaziyatlarga kiradi:
Tabiiy
Texnogen
Ekologik
Transs chegara

336 Kasallikni qisqa muddatda juda keng miqyosda tarqalib ketishi nima deyiladi:
Epidemiya
Pandemiya
Endemiya
Ekologiya

337 Tibbiy evakuatsiya-bu:
Kasal va yaradorlarga tibbiy yordam ko‘rsatish maqsadida qutqaruv ob’ektlariga, birinchi yordam bo‘limlariga, davolash muassasalariga yetkazib yotqizish
Kasallarga favqulotda vaziyat joyida tibbiy yordam berish
Bemorlarni boshqa mamlakatga olib ketish
058-shoshilinch xabarnoma berish

338 Yong‘in-nima:
Qisqa vaqtda chegaralangan hajmdagi, katta miqdordagi quvvatning ajralib chiqishi
Kuchli issiqlik natijasida moddiy, ma’naviy boyliklarni yo‘q qiluvchi, atrof-muhitni izdan chiqaruvchi favqulotda vaziyat
Tog‘ qismlari qatlamlarini qiyalik bo‘ylab gidrodenamiklik, gidrostatik kuchlar ta’sirida surilishi
Mavjud suv havzalaridagi suv sathining ko‘tarilishi oqibatida ma’lum maydondagi yerlarni suv ostida qolishi

339 Tibbiy saralash- nima:
Zararlanganlarni ahvoliga qarab guruhlarga bo‘lish
Kasal va yaradorlarni qutqaruv ob’ektlariga, davolash muassasalariga yetkazish
Favqulotda vaziyatlarda odamlar hayotini saqlash,moddiy talafotlarni kamaytirish
Atrof-muhitga tabiiy zarar yetishi, jiddiy moddiy talofotlar keltirib chiqarishi

340 Immobilizatsiya nima:
Bemorlarni tashish
Bemorlarni evakuatsiya qilish
Bemorlarga yordam ko‘rsatish
Jaroxatlangan a’zolarni ma’lum bir holatda bog‘lash

341 O‘simliklarning ommaviy nobud bo‘lishi:
Epizootiya
Epifitotiya
Epidemiya
Fitoterapiya

342 Texnogen tusdagi favqulotda vaziyatga kirmaydi:

Gidrotexnik halokat
Magistral quvurlardagi avariyalar
Geologik, gidrometeorologik havfli hodisalar
Epifitotiya, epizootiya

343 Dezinseksiya bu-:
Kasallik qo‘zg‘atuvchilarni yo‘qotish
Kimyoviy moddalarni zararsizlantirish
Radioaktiv moddalarni yo‘qotish
Hasharotlarga qarshi kurash

344 Ko‘krak qafasining teshib o‘tuvchi jarohatlarida ko‘p uchraydigan asorat:
O‘pka emfizemasi
Gemotoraks
Piotoraks
Pnevmotoraks

345 ”Terrorizm” so‘zining ma’nosi:
Shaxs ustidan hukmronlik
Davlatni to‘ntarish
Zo‘rlik, zo‘ravonlik
Yakka hokimlik

346 Favqulodda vaziyatlar turlarini aniqlang:
Ekologik va tabiiy
Texnogen, tabiiy va epidemiologik
Tabiiy, texnogen, ekologik
Epidemiologik,ekologik

347 Favqulodda vaziyatlar o‘chog‘ida og‘ir darajali shikastlanganlar qanday rangli saralash markasi bilan belgilanadi:
Qizil
Yashil
Sariq
Ko‘k

348 Tibbiy saralashni kim o‘tkazadi:
Kasalxonadagi shifokor
Sanitarlar, tibbiy saralash brigadasi

Reanimatolog, travmatolog
Xirurg

349 Aholini muhofazalash vositalariga nimalar kiradi:
Panagohlar va metro
Respirator
Paxta-dokali niqob
Ximiyaga qarshi paket

350 Shaxsiy muhofaza vositalariga nimalar kiradi:
Metro va yerto‘lalar
Respirator, gazga qarshi niqob, dokali niqob, individual bog‘lov paketi
Panagohlar va shaxsiy muhofaza kiyimlari
Paxta-dokali niqob va sanitar sumkasi

351 Kuyish shokiga xos belgini aniqlang:
Arterial bosim pasaygan
Erektil bosqichining davomiyligi
Qon yo‘qotilishi
Arterial bosim ko‘tarilgan

352 Ochiq pnevmotoraksda 1-yordam ko‘rsatish qanday muolajadan boshlanadi:
Aseptik bog‘lam qo‘yish, shoshilinch evakuatsiya
Aseptik bog‘lam bog‘lash, kislorod berish, shoshilinch evakuatsiya
Okklyuzion aseptik bog‘lam bog‘lash, kislorod berish, kordiamin yuborish, shoshilinch evakuatsiya
Novokainli blokada yuborishdan

353 O‘ta xavfli yuqumli kasalliklarga qanday kasalliklar kiradi:
Sil, OITS
O‘lat, vabo
Virusli gepatit “S”
Virusli gepatit”A”

354 Topologik tabiiy halokatlarga quyidagilar kiradi:
Suv bosishi
Zilzila
Bo‘ron

Yong‘in

355 Kislotalarni neytrallash uchun nima ishlatiladi:
2%li ichimlik soda
2%li sirka kislota
Limon kislota
Xlorid kislota

356 Meteorologik halokatlarga kiradi:
Dovul, bo‘ron
Zilzila
Yong‘in
Vulqon

357 Ishqor bilan kuyganda neytrallash uchun nima ishlatiladi:
2%li sirka kislota
2%li ichimlik soda
Bo‘r
Xlorid kislota

358 Qon ketishini to‘xtatishning biologik usuliga qaysilar kiradi:
Gemostatik vositalarni mahalliy qo‘llash, qon, antigemofil zardobini quyish
Vodorod peroksidni mahalliy qo‘llash
Kalsiy xloridni quyish
Elektrokoagulyatsiya qo‘llash

359 Qonni vaqtincha to‘xtatish usuli qanday:
Qorin yog‘i bilan jarohatni tamponlash
Fibrinogen qo‘llash
Barmoq bilan tomirni ma’lum vaqti oralig‘ida bosib turish, burama qo‘yish
Jarohatdagi tomirni bog‘lash

360 Parenximatoz qon ketishiga xos belgi qanday:
Qonning sizib oqishi
Qonning alvon rangida bo‘lishi
Qonning sekin oqishi (tomchilab)
Butun jarohat maydonidan qon ketishi

361 Transport immobilizatsiyasi uchun nima ishlatiladi:
Yelizarov apparati
Beller shinasi
Kramer va improvizatsion shinalar
SITO shinasi

362 Immobilizatsiyaning asosiy qoidasi:
Jaroxatlangan joyni xarakatsizlantirish
Qon oqishini vaqtincha to‘xtatish
Og‘riqsizlantirish choralarini qo‘llash
O‘pka-yurak reanimatsiyasini o‘tkazish

363 Tabiiy tusdagi favqulotda vaziyatga kiradi:
Gidrotexnik halokatlar
Magistralquvurlardagiavariyalar
Geologik, gidrometeorologik havfli hodisalar
Kimyoviy havfli ob’ektlardagi avariyalar

364 Jaroxat nima:
Miyaga qon quyilishi
Mexanik ta’sir natijasida teri, shillik parda, organlar butunligini buzilishi
Qon bosimining ko‘tarilishi
Terining yallig‘lanishi

365 Jabrlanganlarni davolash muassasasiga olib borish:
Tibbiy saralash
Transport immobilizatsiya
Tibbiy evakuatsiya
Qisman sanitariya tozalash

366 Tez shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatish xizmat turi qaysi xizmat turiga kiradi:
Ixtisoslashgan tibbiy xizmat turi
Bepul tibbiy xizmat turi
Aralash tibbiy xizmat turi.
Imtiyozli tibbiy xizmat turi

367 Xodimning asosiy mehnat huquqlariga nimalar kiradi:

Har bir shaxs mexnat qilish, erkin ish tanlash, haqqoniy mehnat sharoitlari asosida ishlash va ishsizlikdan ximoyalanish xuquqiga ega
Har bir shaxs erkin ish tanlash huquqlariga ega
Haqqoniy mehnat sharoitlari asosida ishlash huquqiga ega
Ishsizlikdan himoyalanish xuquqiga ega

368 Mehnat shartnomasining muddati:
Muayyan, nomuayyan, muayyan ishni bajarish vaqtiga mo‘ljallangan
Aniq vaqt belgilanmaydi
Qisqa muddatli, o‘rta muddatli, muayyan ishni bajarish vaqtiga mo‘ljallangan
Qisqa muddatli, uzoq muddatli , mavsumiy

369 Davolash-profilaktika muassasasi bosh hamshira lavozimiga kimlar tavsiya etiladi:
Oliy yoki o‘rta ma’lumotga ega bo‘lgan hamshiralar
O‘rta ma’lumotga va 3 yil ish stajiga ega bo‘lgan hamshiralar
Oliy va o‘rta ma’lumotga va 5 yil ish stajiga ega bo‘lgan hamshiralar
Faqat oliy ma’lumotga ega bo‘lgan hamshiralar

370 Tibbiyot kollejida o‘qituvchi lavozimida 5 yil faoliyat yuritgan mutaxassis, shifohonaga hamshira lavozimiga ishga kirmoqchi, unga qo‘yiladigan talablar nimalardan iborat:
Malaka oshirish kursida 144 soat o‘qishi lozim
Ixtisoslashtirish kursida 288 soat o‘qishi lozim
Malaka oshirish kursida 72 soat o‘qishi lozim
Ixtisoslashtirish kursida 432 soat o‘qishi lozim

371 Sterilizatsiya va avtoklav hamshirasi lavozimini egallash uchun necha soat ixtisoslashtirish kursida o‘qish lozim:
216 soat
288 soat
144 soat
172 soat

372 Davolash-profilaktika muassasalarida o‘rta tibbiyot xodimlarini uzluksiz malakasini oshirish masalalari kim tomonidan tashkil etiladi:
Muassasa bosh hamshirasi tomonidan
Muassasa bosh shifokori tomonidan
Muassasa bo‘lim mudiri tomonidan

Muassasa kichik tibbiy xodimi tomonidan

373 “Ustoz” - shogirdga nisbatan qanday bo‘lishi lozim:
Rivojlanishga muhtoj shogirdning insoniy fazilatlarini baholay oladigan, muassasa muhitiga moslashishiga yordam beradigan, qo‘llab-quvvatlashga tayyor
Muassasa muhitiga moslashishiga yordam bermaydigan
O‘z vazifalarini shogirdiga yuklaydigan
O‘ta talabchan

374 Shifoxonada hamshiralar kengashining raisi kim:
Bosh hamshira
Bosh shifokor muovini
Katta hamshira
Epidemiolog yordamchisi

375 Patronajning yangi modeli an’anaviydan farqi:
Bolani jismoniy rivojlanish ta’minlash
Kasallikni va tibbiy muammolarni aniqlash
Bolani xoxshiga qarab ovqatlantirish
Patronaj qatnovini soniga emas, sifatiga urg‘u beriladi

376 Universal-progressiv modelga asosan aholining qaysi qismi bilan ishlaydi:
Katta yoshdagi dispanser nazoratidagi axoli bilan
Faqat fertil yoshidagi ayollar bilan
Barcha homilador, tug‘ruqdan keyingi va 5 yoshgacha bo‘lgan bolalar bilan
Faqat ko‘krak yoshidagi bolalar bilan

377 Universal-progressiv model bo‘yicha xomilador ayollar patronaji qaysi haftalarda amalga oshiriladi:
6-20 haftalarda
12-32 haftalarda
10-24haftalarda
16-34 haftalarda

378 Unversal modeli bo‘yicha barcha 5 yoshgacha bolalar uchun nechta tashrif amalga oshiriladi:
14 ta tashrif

16 ta tashrif
20 ta tashrif
12 ta tashrif

379 Unversal modeli bo‘yicha chilla davridagi ayol patronaji necha marta o‘tkaziladi:
Tug‘ruqdan keyin 1 oyda 3-marta
Tuqqandan so‘ng 2 oyda 1-marta
Tuqqandan so‘ng 6oyda 1-marta
Tuqqandan so‘ng 42 kun ichida 2-marta

380 Boshqaruvning demokratik uslubi ifodalanadi:
O‘z qarashlarini bajaruvchilarga majburlash va ularni qat’iy nazorat qilish
Qo‘l ostidagi xodimlarga ish yuzasidan to‘la erkinlik yaratib berish va ular ishini nazorat qilish
Qo‘l ostidagi xodimlarga o‘z qarashlarini majburlamaslik, muxitni tashkil qilishda motivatsiya qilish
Qo‘l ostidagi xodimlarga to‘la erkinlik berish, ularni nazorat qilmaslik

381 Rahbarning ish vaqtini “yutuvchilar” bu:
Telefon qo‘ng‘iroqlar, rejalashtirilmagan uchrashuvlar
Rejalashtirilgan yig‘ilish
Rejalashtirilgan uchrashuvlar
O‘z vaqtidagi to‘liq xabarlar

382 Bemorga yo‘naltirilgan parvarishni amalga oshiradigan hamshirada qanday hislatlar va sifatlar mavjud bo‘lishi kerak:
Hushmuomala, chiroyli, o‘zi hoxlagan usulda parvarish qiladigan
Qat’iy, irodali, shifokor ko‘rsatmasini bajaradigan
Mustaqil fikrlaydigan, xushmuomala, bemor muammolarini e’tiborga oladigan, irodali
Bilimli, shifokor ko‘rsatmasidan chetga chiqmaydigan, xushmuomala

383 Shifokor ko‘rsatmalari bemorga to‘g‘ri kelmasa, hamshira shifokor bilan maslahatlashishi kerakmi:
Yo‘q, shifokor ko‘rsatmasini bajarish kerak
Yo‘q, bemor qarindoshlari bilan maslahatlashish kerak
Ha, shifokor bilan maslahatlashish kerak
Ha, shifokor bilan maslahatlashib, o‘zi xoxlagan usulda parvarish qilishi kerak

384 Umumiy amaliyot hamshirasi vazifasiga kirmaydigan qatorni toping:
Radikal davolash
Umumiy amaliyot shifokori ambulator qabul qilishini tashkillashtirish
Sanitar jarayonlar o‘tkazish
Dispanserizatsiya o‘tkazish

385 Xamshiralik jarayonida parvarishlash bemorni qaysi extiyojlariga asoslanadi:
Vrach tashxisiga asoslanadi
Oilasi va qarindoshlar fikriga asoslanadi
Bemorni qondirilmagan ehtiyojlariga asoslanadi
Hamkasblar fikriga asoslanadi

386 Og‘ir bemorlarni parvarish qilishda hamshiraning jismoniy zo‘riqishiga duchor bo‘lishida asosan qaysi sohani shikastlanishi kuzatilishi mumkin:
Umurtqa pogonasini shikastlanishi
Tizzalarni shikastlanishi
Bosh jaroxatlanishi
Ichki a’zolarni shikastlanishi

387 Agar kimdir bemorning qizikishlariga zarar yetkazishga harakat qilsa, hamshira esa o‘z bilimlariga asoslangan holda, kat’iyan bemorning kiziqishlarini himoya qilsa, parvarish kimga yo‘naltirilgan bo‘ladi:
Shifokorga
Bemorga
Hamshiraning o‘ziga
Bemor oila a’zolariga

388 1.5 yil ish stajiga ega bo‘lgan hamshira 10 yil davomida o‘z mutaxassisligi bo‘yicha ishlamagan, hozir esa o‘z ishiga qayta joylashmokchi. Bu hamshirani ishga olish tartibi qanday bo‘ladi:
Mutaxasisligi bo‘yicha o‘quv kursini o‘tganidan co‘ng
Konkurs asosida tug‘ridan- tug‘ri ishga qabul qilinadi
Malakasini oshirganidan so‘ng
Ish joyida stajirovka o‘tgandan co‘ng

389 Menedjerning asosiy vazifalari nimalardan iborat:
Ishni nazorat qilish, yechimlar qabul qilish
Ishni nazorat qilish, korxonani boshqarish

Ishni nazorat qilish, yechimlar qabul qilish, korxonani boshqarish
Ishni nazorat qilish

390 Boshqaruv faoliyatini asosini quyidagilar tashkil qiladi:
Boshqaruv ob’ekti
Ishlab chiqarish kuchlari
Boshqaruv texnologiyasi
Boshqaruv sub’ekti

391 Har qanday ob’ektni boshqarish quyidagi qaysi pog‘onalarni o‘z ichiga oladi:
Strategik, situatsion,operativ
Ambulator, situatsion, strategik
Taktik,operativ
Ambulator

392 Sog‘liqni saqlash tizimi o‘rta zveno boshqaruvi rahbarlariga quyidagilar kiradi:
Tadbirkorlar
Texnik xodimlar
Bosh vrach, bosh vrach muovini, bosh hamshira
Bo‘lim boshlig‘i

393 Boshqaruv mexanizmi tarkibi o‘z ichiga quyidagilarni kiritadi:
Boshqaruv prinsipi,boshqaruv usullari, tarkibi, vazifalari
Boshqaruv usullari boshqaruv maqsadlari
Boshqaruv maqsadlari
Boshqaruv tarkibi

394 Xodimlar tarkibi qiskartirilayotgan davrda ish beruvchi ishchini qancha vaqt oldin menhnat kontrakti tugallanishi xaqida ogoxlantirishi kerak:
3 oydan kam bo‘lmagan muddat davomida
2 oydan kam bo‘lmagan muddat davomida
1 oydan kam bo‘lmagan muddat davomida
2 haftadan kam bo‘lmagan muddat davomida

395 Ishga kabul qilishda eng kichik yosh:
16 yosh
15 yosh

18 yosh
17 yosh

396 Qaysi vitamin yetishmasligi raxitga olib keladi:
Vitamin D
Vitamin V
Vitamin S
Vitamin Ye

397 Tibbiy hujjatlar qanday hujjat hisoblanadi:
Hamshira uchun hujjat
Xisob-kitob uchun hujjat
Tibbiyot xodimi uchun hujjat
Yuridik hujjat

398 O‘n ikki barmoq ichak yarasida og‘riq qachon bo‘ladi:
Och qoringa
Ovqat vaqtida
Ovqatdan keyin
Qorin to‘qligida

399 Sog‘lom oilani shakllantirish-bu ...:
Tug‘ruqlar orasidagi muddatni tartibga solish, barkamol nasl qoldirish
Oilada bolalar sonini kamaytirish, tug‘ish orasidagi muddatni qisqartirish
Oilada qizlar sonini oshirish
Oilada o‘g‘il bolalar sonini ko‘paytirish

400 Antropometrik tekshiruvlarni kunning qaysi vaqtida o‘tkaziladi:
Kunni 2-chi yarmida
Kunni birinchi yarmida
Kechasi
Istalgan vaqtda

401 Kontrasepsiya- nima:
Kutilmagan homiladorlikni oldini olish usullari
Kutilgan homiladorlikni oldini olish
Bachadon bo‘shlig‘ini qirish
Infeksiyaga qarshi kurash

402 Sog‘lom homiladorlarda uchrashi mumkin bo‘lgan belgilar:
Kuchli bosh og‘rig‘i
Holsizlik,tez charchash, kayfiyatning o‘zgarishi,jahldorlik, jig‘ildon qaynashi
Qorinda kuchli og‘riq
AQBni keskin ko‘tarilishi

403 Homiladorlikni taxminiy belgilarini ko‘rsating:
Ishtaxani o‘zgarishi, ko‘ngil aynishi, qusish, uyquchanlik
Hayzni kelmasligi, qorin shaklini kattalashuvi
UZI, test natijalarini musbatligi
Ko‘krakdan sut kelishi

404 Ayollar ekstragenital kasalliklar deb nimaga aytiladi:
Ayollar va homiladorlarning jinsiy a’zolarida uchraydigan kasalliklardan boshqa barcha xastaliklar guruhiga aytiladi
Ayollar va homiladorlarning jinsiy a’zolarida uchraydigan kasalliklar guruhiga aytiladi
Tuxumdon va bachadon yallig‘lanishlari kiradi
Ayollarda kuzatiladigan kasalliklar

405 Infeksion gepatitlar ko‘zg‘atuvchisi ...:
Salmonella
Vibrion
Viruslar
Kokklar

406 Qaysi gepatitlar kontakt yo‘l orqali yuqadi:
A,Ye
A,V,Ye
V,S,D
S,A,D

407 Qaysi gepatitlar gematogen yo‘l orqali yuqadi:
A,Ye
A,V,Ye
V,S,D
S,A,D

408 “Gerontologiyaga ”to‘g‘ri ta’rif bering:
Gerontologiya-nafas a’zolarining kasalliklarini o‘rganadigan bo‘lim
Gerontologiya-yurak qon- tomir a’zolarining kasalliklarini o‘rganadigan bo‘lim
Gerontologiya-bu insonning qarish jarayonini o‘rganadigan fan
Gerontologiya-bu keksalar psixikasi va fe’l-atvorini o‘rganadigan fan

409 Qarilik shartli ravishda necha yoshdan boshlanadi:
55 yoshdan keyin
75 yoshdan keyin
45 yoshdan keyin
80 yoshdan keyin

410 Me’dadan qon ketishining asosiy belgisi:
Ko‘pikli qon aralash balg‘am ajralishi
Ishtahaning pasayishi
”Kofe quyqasi” singari qusish
Tana xaroratining ko‘tarilishi

411 Gipogalaktiya nima:
Sut kamayishi
Zaharlanish
Sut ko‘payishi
Vazn oshishi

412 Hazm a’zolari kasalliklariga kirmaydi:
Tonzillit, angina
Duodenit, ezofagit
Kolit, enterit
Ezofagit, kolit

413 Buyrak jomlarining yallig‘lanishi:
Plevrit
Perikardit
Pankreatit
Pielonefrit

414 Og‘riq bilan siydik ajralishiga nima deyiladi:

Nikturiya
Ishuriya
Gematuriya
Uremiya

415 Diffuz toksik buqoqning klinik belgilarini toping:
Tunda siydik ajralishi, siydikda oqsil bo‘lishi
Ekzoftalm, tremor, taxikardiya
Semirish, terining quruqligi
Tirnoqlarning mo‘rtligi, sochlarning to‘kilishi

416 Xamshiralik tekshiruvining sub’ektiv usuliga kiradi:
Meditsina kartasi ma’lumotlari bilan tanishish
Arterial bosimini ulchash
Bemorni surab-surishtirish
Tana haroratini o‘lchash

417 Siydik qopini kateterizatsiyalashda ko‘p uchraydigan asoratlar:
Siydik tuta olmaslik
Siydik yo‘liga infeksiya tushishi
Uretra jarohati
Siydik kopini zararlanishi

418 Ambulator tibbiy kartaning saqlanish muddati ...:
Doimiy
15 yil
5 yil
25 yil

419 Profilaktik emlashlar kartasining shakli qaysi javobda to‘g‘ri berilgan:
063/h
065/h
026/h
031/h

420 Nikturiya bu …:
Tungi diurezning ortishi
Siydik tuta olmaslik

Siydik rangining o‘zgarishi
Siydikda oqsil paydo bo‘lishi

421 Qandli diabetga hos simtomni toping:
Anuriya
Poliuriya
Enurez
Oliguriya

422 Sindrom nima:
Kasallik belgisi
Kasallikning avj olib borishi
Kasallik sababi
Birga qo‘shilgan simptomlar yig‘indisi

423 Residiv nima:
Kasallik belgilarining susayishi
Kasallikning qo‘zishi
Kasallik belgisi
Kasallik sababi

424 Remissiya nima:
Davo natijasida kasallik belgilarining susayishi
Kasallik qo‘zishi
Kasallik kechishi
Kasallik asorati

425 Uchlamchi profilaktikadan maqsad nima:
Kasallik rivojlanib bo‘lganda, uning asoratlarini oldini olish va bemor reablitatsiyasi
Kasallik paydo bo‘lishini oldini olish
Kasallik namoyon bo‘lganda uni nazorat qilish

426 Yosh oila patronaji qachon amalga oshiriladi:
Birinchi patronaj - turmush qurgandan 40 kundan keyin va 6 oydan so‘ng
Birinchi patronaj 1oydan so‘ng
Ikkinchi patronaj bir yildan so‘ng
Birinchi patronaj 3 oydan so‘ng.

427 Yotoq yara bu …:
Terini uzoq vaqt bosilib qolishi, mahalliy qon aylanishining buzilishi, yumshoq to‘kimalarning o‘lishi
Teriga ovqat qoldiqlarini tushib qolishi
Badanga kiyimlarni yig‘ilib qolishi
Bemorni koma holati

428 Bronxial astmaning yurak astmasidan farqi nimadan iborat:
Yurak sohasidagi og‘riq va qon tuflash
Akrotsianoz, nafas olish qiyinlashgan, aritmiya
Yurakning perkutor o‘lchamlari kattalashgan
Ekspirator nafas siqishi, balg‘am quyuq, yopishqoq, qiyinchilik bilan ko‘chadi

429 Krupoz zotiljam nima:
O‘pka segmentining yallig‘lanishi
O‘pkani butun bir bo‘lagining yallig‘lanishi
O‘pka to‘qimasining cheklangan holda yiringlashi
O‘pka to‘qimasining chirishi

430 Gipertermiya nima:
Tana haroratining tushib ketishi
Tana xaroratining ko‘tarilishi
Nafas sonining tezlashi
Kuchli bosh og‘rishi

431 Qandli diabetning rivojlanish mexanizmi qanday:
Qonda qand miqdorini oshishi
Oshqozon osti bezida insulin kam ishlab chiqarilishi
Siydikda qand paydo bo‘lishi
Insulinni ko‘p ishlab chiqarilishi

432 Sil kasalligiga tashxis qo‘yishda qo‘llaniladigan qo‘shimcha tekshirish usuli bu ...:
Xolesitografiya
Flyurografiya
Urografiya
Tomografiya

433 Dispanserizatsiya samaradorligi baholanadi:
Tekshirilganlar soniga koʻra
Aniqlangan surunkali kasalliklarga koʻra
Oʻtkazilgan tibbiy koʻriklarga asosan
Kasalliklarni oʻtkazib yuborgan bemorlarni aniqlash orqali

434 Kasalliklarni oldini olish (profilaktika) kuyidagi kaysi muassasalarning asosiy vazifasiga kiradi:
Poliklinika, KVP, QOP
Shifoxona, dispanser
Tugʻruqxona, skrining markaz
Shoshilinch yordam markazi va filiallari

435 Fertil yoshidagi ayollarni sogʻlomlashtirish» tushunchasiga nimalar kirmaydi:
Kontraseptiv vositalarni qoʻllash
Tugʻruk yoshidagi ayollarda ekstragenital kasalliklarni aniqlash
Tugʻruklar orasidagi optimal intervalni saqlash
20 yoshdan kichik va 30 yoshdan katta yoshdagi ayollarda homiladorlikni toʻxtatish

436 Reproduktiv salomatlik nima:
Bu reproduktiv tizim va uning faoliyatiga bogʻliq barcha masalalar borasida faqat kasallik va kamchiliklar yoʻqligi boʻlibgina qolmay, balki toʻliq jismoniy, aqliy va ijtimoiy muvaffakiyatlar holati xamdir
Bu reproduktiv a'zolarni jinsiy yoʻl bilan yuquvchi kasalliklardan davolash va ularni oldini olishga qaratilgan koʻp tarmoqli chora-tadbirlar majmuasidir
Bu erkak va ayolni reproduktiv tizim va uni faoliyatiga bogʻliq kasalliklardir
Bu ayollar reproduktiv a'zolarining kasallik yoki jismoniy nuqsonlarning yoʻqligi

437 JSSTning kriteriylari buyicha fertil yoshidagi ayollarning yosh kursatkichi qanay:
15yosh – 49 yosh
20yosh – 40 yosh
19yosh – 30 yosh
18yosh – 50 yosh

438 Oila salomatligini saqlashga qaratilgan chora-tadbirlarning maqsadi nima:
Oilada psixologik iqlimni o‘rnatish
Aholiga xizmat ko‘rsatish
Salomatlikni saqlash bo‘yicha maslahat berish
Ovqatlanish muammolarini aniqlash

439 Sog‘lom turmush tarzini shakllantirish ishining maqsadi nima:
Zamonaviy tashhis
Turli hil kasalliklarning oldini olish
Reabilitatsiya
Kasallikni o‘z vaqtida tashhislash

440 Kollapsning kelib chiqishiga nima sababi bo‘lishi mumkin:
Krupoz zotiljam
Bronxit
Gipertoniya kasalligi
Revmatizm

441 Profilaktik dezinfeksiya nima:
Kasallikni oldini olish maqsadida olib boriladigan choralar
Kasallik o‘chog‘ida olib borilgan dezinfeksiyaga aytiladi
Bemor yotgan honani yuvib tozalash
Asboblarni yuqumsizlantirish